



Moliyaviy barqarorlik sharhi

2022-yil I yarim yillik

Oktabr 2022

Moliyaviy barqarorlik sharhi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yiliga ikki marta chop etiladi. Mazkur sharh moliya tizimidagi zaifliklar va risklarni baholash, ichki moliya tizimi barqarorligining tahlili va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati va choralari kabi masalalarni qamrab oladi.

Mazkur sharh 2022-yil 1-iyulgacha bo'lgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan.





O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliyaviy barqarorlik departamenti tomonidan tayyorlandi.

Fikr va mulohazalaringizni udjumanazarov@cbu.uz elektron manziliga yuborishingiz mumkin.





Moliyaviy barqarorlik sharhi 2022-yil I yarim yillik





Mundarija





Umumiy xulosa	7
I. Makromoliyaviy sharoitlar	9
1-havola. Iqlim o'zgarishi xatarlari	18
II. Bank tizimi barqarorligi tahlili.....	20
2.1. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari.....	20
2-havola. Xatarlar xaritasi	29
2.2. Muammoli kreditlar	32
2.3. Qarz yuki tahlili	37
III. Makroprudensial siyosat vositalari	43
3.1. Kredit to'lovini daromadga nisbati hamda kreditni garov qiymatiga nisbati	43
3.2. Tizimli ahamiyatga molik banklarga qo'shimcha bufer joriy qilish imkoniyatlari.....	48
IV. Makro stress-test	61
4.1. Makroiqtisodiy ssenariylar.....	61
4.2. Makro stress-test natijalari	63
Ilovalar.....	68

Moliyaviy barqarorlik uchun asosiy xatarlar	Xatarlar darajasi va dinamikasi		Xatarlarni yengillashtiruvchi choralar
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda	
Xavf darajasi past	Xavf darajasi o'rta		Xavf darajasi yuqori
Tashqi xatarlar			
<p>Tashqi geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi. Geosiyosiy vaziyatning yomonlashishi iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga, inflyatsiyaning oshishiga, pul o'tkazmalari va investorlar ishonchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, yalpi talabga ta'sir etib, korxonalar va aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi. Natijada, banklarning kredit portfeli yomonlashishi va qarz oluvchilarning kreditlarga xizmat ko'rsatish qobiliyatining pasayishi oqibatida muammoli kreditlar ko'payishi mumkin.</p>			<ul style="list-style-type: none"> - erkin shakllanuvchi valyuta kursi, inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan pul-kredit siyosati va faol makroprudensial siyosat orqali makroiqtisodiy barqarorlikka yo'naltirilgan o'zaro muvofiqlashgan siyosatni davom ettirish; - bank aktivlari sifatining monitoringini, ayniqsa, pandemiyadan eng ko'p zarar ko'rgan va muammoli kreditlar o'sishi kuzatilayotgan tarmoqlarda kuchaytirish; - makroprudensial buferlar, jumladan, kontrsiklik kapital buferini va tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferini joriy qilish.
<p>Tranzaksion risklarning oshishi. Tashqi geosiyosiy vaziyat oqibatida xalqaro tranzaksiyalarni amalga oshirishda tegishli kompliens risklari yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, AQSh Moliya vazirligi SPFS a'zolari bo'lgan moliyaviy tashkilotlarni AQSh moliya tizimiga, shu jumladan,</p>			<ul style="list-style-type: none"> - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimini (AML/CFT) samarali olib borish va "mijozni aniqlash" (KYC) qoidalariga amal qilish;

Moliyaviy barqarorlik uchun asosiy xatarlar	Xatarlar darajasi va dinamikasi		Xatarlarni yengillashtiruvchi choralar
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda	
vakillik hisobvaraqlariga kirishiga cheklov o'rnatishi mumkin. Bu esa, banklar uchun tranzaksiya xarajatlarining oshishiga, bank xizmatlari turlarining qisqarishiga, bank reytinglarining pasayishiga va mamlakat risk mukofotining (risk premium) oshishiga olib kelishi mumkin.			<ul style="list-style-type: none"> - AQShning Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) hamda Yevropa Ittifoqining cheklovlarini inobatga oluvchi samarali xalqaro sanksiyalarga rioya qilish dasturlarini ishlab chiqish; - sanksiyalarga qaratilgan chora-tadbirlardagi o'zgarishlarni doimiy monitoring qilish, shuningdek, xavflarni yuzaga kelish ehtimolini davriy baholab borish; - sanksiyaviy komplaens tajribasiga ega yetakchi konsalting agentliklari va ekspertlar hamjamiyati bilan muloqotni davom ettirish.

Moliyaviy barqarorlik uchun asosiy xatarlar	Xatarlar darajasi va dinamikasi		Xatarlarni yengillashtiruvchi choralar
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda	
<p>Yetakchi markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatining qat'iy lashtirilishi. Tashqi bozorlarda moliyaviy resurslar narxi oshib borayotgan sharoitda mahalliy banklar va korxonalar tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi hamda direktiv kreditlash amaliyoti kengayishi mumkin. Natijada, muammoli kreditlar oshishi hamda mamlakatning moliyaviy buferlari kamayishiga olib kelishi mumkin.</p>			<ul style="list-style-type: none"> - belgilab olingan tarkibiy islohotlarni (davlat korxonalari va banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish, raqobat va tashqi savdoni yanada erkinlashtirish) mantiqiy yakuniga yetkazish; - ichki va tashqi xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq-budjet va pul-kredit siyosatini yuritish orqali bosqichma-bosqich davlatning iqtisodiyotni moliyalashtirish yuklamasini pasaytirib borish; - kapital va likvidlik buferlarining darajasi va sifatini oshirish orqali tartibga soluvchi asoslarni mustahkamlash.
<p>O'zbekistonning risk premiumi (xatar uchun ustama) oshishi natijasida banklar uchun tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarining kamayishi. Risk premiumning oshishi xorijiy kreditlarning foiz stavkalari o'sishiga olib kelishi mumkin. Xorijiy qarz beruvchilar esa o'z qarzlarini qaytarish muddatlarini uzaytirishni</p>			<ul style="list-style-type: none"> - banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligini kamaytirish maqsadida jamg'armalar bazasini kengaytirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan depozit siyosatini yuritish; - davlat ulushi mavjud banklarni transformatsiya qilish jarayonlarini faollashtirish;

Moliyaviy barqarorlik uchun asosiy xatarlar	Xatarlar darajasi va dinamikasi		Xatarlarni yengillashtiruvchi choralar
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda	
istamasligi mumkin. Shu bilan birga, ushbu holat yangi kreditlash faoliyatini xavf ostiga qo'yishi va banklar tashqi qarzlarni to'lash uchun xorijiy valyuta likvidligidan foydalanishga bosim o'tkazishi mumkin. Natijada, kreditlash va iqtisodiy faollikning qisqarishiga olib kelishi mumkin.			- banklarning tashqi qarzga bog'liqlik darajasini cheklovchi makroprudensial chora-tadbirlarni amalga oshirish.
Tashqi kiber hujumlar. Bunday hujumlar bank tizimi, jumladan, muhim moliyaviy infratuzilmalarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda aholining ishonchiga putur yetkazishi mumkin.			- xalqaro moliya tashkilotlari va tegishli tajribaga ega markaziy banklarning texnik yordami bilan bank sektori uchun kiberxavfsizlik salohiyatini rivojlantirish; - banklarda kiberxavflar boshqaruvini nazorat qilish asoslarini ishlab chiqish.
Ichki xatarlar			
Milliy valyutaning sezilarli darajada qadrsizlanishi sharoitida dollarlashuvning yuqori darajasi bilan bog'liq to'lov qobiliyati va xorijiy valyutada likvidlik risklarining ro'yobga chiqishi. Milliy valyutaning qadrsizlanishi uy xo'jaliklari va biznes vakillari bo'yicha qarzlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, aholi va biznes vakillarining muammoli kreditlari (NPL) hamda defolt darajasi keskin oshishiga sabab bo'lishi mumkin.			- valyuta kursining bozorda talab va taklif asosida erkin shakllanishiga sharoit yaratib borish, inflyatsiyani target ko'rsatkichiga pasaytirish va prudensial choralarini qo'llash orqali dollarizatsiya darajasini pasaytirish; - milliy valyutadagi jamg'armalarni rag'batlantirish uchun ijobiy real foiz stavkalarini saqlab qolish.

Moliyaviy barqarorlik uchun asosiy xatarlar	Xatarlar darajasi va dinamikasi		Xatarlarni yengillashtiruvchi choralar
	Qisqa muddatda	O'rta muddatda	
<p>Qarz yukining oshishi yoki yuqori darajada saqlanib qolishi. Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati, PTI, LTV va DSR ko'rsatkichlarining yuqori darajalari saqlanib qolishi.</p>			<p>- PTI va LTV ko'rsatkichlari uchun talablarni qat'iyashtirish;</p> <p>- DSR ko'rsatkichi uchun me'yoriy cheklov o'rnatish.</p>
<p>Iqlim bilan bog'liq moddiy xavflar (masalan, tez-tez yoki keskin ob-havo hodisalaridan kelib chiqadigan xatarlar) va o'tish xavflarining (masalan, kamroq ifloslantiruvchi, past uglerodli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq xatarlar) yuzaga kelishi natijasida kelib chiqadigan kredit yo'qotishlari.</p>			<p>- tegishli xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida iqlim o'zgarishining moliyaviy sektorga ta'sirini tahlil qilish asoslarini ishlab chiqish;</p> <p>- moliyaviy tizim uchun iqlim o'zgarishi ta'sirlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar va vositalarni belgilash.</p>

Izoh: Strelkaning yo'nalishi risk darajasining o'zgarishini ifodalaydi.

Umumiy xulosa

O‘zbekiston bank tizimi Kovid-19 pandemiyasi va tashqi iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishlaridan kelib chiqadigan shoklarga yaxshi bardosh bermoqda. 2022-yilning I yarim yilligida bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari Bazal III minimal talablaridan yuqori bo‘ldi. Regulyativ kapitalning hamda birinchi darajali kapitalning monandlilik koeffitsiyentlari minimal talablardan 1,3 baravar yuqoriligini ko‘rsatdi. Bank aktivlariga nisbatan talabning qat‘iylashtirilishiga qaramay, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) minimal talabga (100 foiz) nisbatan yuqori shakllandi.

2017 yildan boshlab O‘zbekistonda jami kreditlarning YaIMga nisbati sezilarli darajada oshib, MDH va daromadi o‘rtadan pastroq bo‘lgan davlatlar darajasiga yetdi. 2017–2020 yillarda O‘zbekistonda kreditlar hajmi keskin oshishi hamda kreditlarning o‘shish sur‘ati YaIMning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘ldi. 2021 yilda O‘zbekistonda jami kreditlarning YaIMga nisbati (44 foiz) MDH davlatlari bo‘yicha mediana ko‘rsatkichidan (30 foiz) baland bo‘lib, uning yuqori darajasi saqlanib qolmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston qisqa vaqt ichida jami kreditlarning YaIMga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha daromadi o‘rtadan pastroq bo‘lgan davlatlar bo‘yicha mediana ko‘rsatkichiga yetib oldi.

Pandemiya sababli banklardagi muammoli kreditlarning (NPL) jami kreditlardagi ulushi 5-6 foizgacha keskin ko‘tarildi. Pandemiya bilan bir qatorda davlat dasturlari asosida kreditlash va banklar tomonidan muammoli kreditlar hisobini yuritishning takomillashtirilishi natijasida muammoli kreditlar miqdori sezilarli o‘sdı. 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning muammoli kreditlar ulushi (4,9 foiz) Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari (5,9 foiz) hamda Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari (5,2 foiz) bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan pastroq bo‘ldi. Tarmoqlar qirqimida muammoli kreditlar sanoat va qishloq xo‘jaligida sezilarli oshgan.

Kredit to‘lovining daromadga nisbati (PTI) 51 foizdan yuqori hamda kredit miqdorini garov qiymatiga nisbati (LTV) 76–90 foiz oralig‘ida bo‘lgan ipoteka kreditlari jami ipoteka kreditlarda yuqori ulushni tashkil etmoqda. 2018-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda kredit to‘lovining daromadga nisbati 51 foizdan yuqori bo‘lgan ipoteka kreditlarining ulushi dinamikasida pasayish kuzatildi. Umumiy ipoteka

kreditlarining 60–70 foizini kredit to'lovining daromadga nisbati 51 foizdan yuqori bo'lgan ipoteka kreditlari tashkil etmoqda. Qarz oluvchilarning ortiqcha qarz yukini cheklash maqsadida 2020-yilda Markaziy bank kredit to'lovining daromadga nisbati 50 foizdan yuqori bo'lgan jismoniy shaxslarga kreditlar berish cheklovini joriy etdi. Kredit miqdorining garov qiymatiga nisbati 76–90 foiz oralig'ida bo'lgan ipoteka kreditlari ulushi taxminan 90 foizni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun qo'shimcha bufer qo'llash zarurati yuzaga kelmoqda. Bazel qo'mitasining uzoq muddatli iqtisodiy ta'sir yondashuviga (LEI) ko'ra O'zbekistonda birinchi darajali asosiy kapital (CET1) uchun o'rnatilgan me'yor (8 foiz) uning eng maqbul ko'rsatkichidan past darajada shakllangan. Shuningdek, bank tizimining konsentratsiya indeksi (HH indeksi)ga ko'ra, O'zbekistonda banklarning konsentratsiyalashuvi o'rta darajada bo'lmoqda. LEI hamda HH indeksi bo'yicha tahlil natijalari O'zbekistonning tizimli ahamiyatga molik banklari uchun birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan 2 foiz qo'shimcha bufer o'rnatishni taqozo etadi. Shuningdek, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib kapitalga qo'yilgan minimal talablar bilan bufer talablarini muvofiqlashtirish tizimli ahamiyatga molik banklar uchun bufer joriy qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.


Makro stress-testning dastlabki natijalari bank tizimining barqaror ekanligini ko'rsatdi. 2024-yil oxiriga kelib, asosiy va mo'tadil ssenariylarda banklarning kapital yetarlilik darajasi minimal regulyativ kapital me'yorida (13 foiz) yuqori bo'lishini hamda turli xil shoklarga yaxshi bardosh bera olishini namoyon qilmoqda. Biroq, xatarli ssenariyda, ya'ni iqtisodiyotning keskin yomonlashuvi va valyuta kursining sezilarli darajada qadrsizlanishi holatida bank tizimi regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti 13 foizlik me'yoriy chegaradan tushib ketish ehtimoli yuqoridir. Bunda sezilarli kredit yo'qotishlar va riskka tortilgan aktivlarning o'sishi banklarni regulyativ kapitalga nisbatan qo'yilgan minimal talabni bajara olmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, bank kapitali yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar jiddiy xavf tug'dirmaydi va bank tizimi ushbu yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun yetarli himoyaga ega bo'ladi.

I. Makromoliyaviy sharoitlar


Xalqaro moliya tashkilotlari va markaziy banklar tomonidan moliyaviy tahlil va siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy sharoitlar indeksi (Financial Conditions Index, FCI) muhim ma'lumot beruvchi makromoliyaviy ko'rsatkichlardan biri hisoblanib, mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni umumlashtirilgan moliyaviy barqarorlik holatini ifoda etadi (1-ilova).

Joriy yilda rivojlangan davlatlarda kuzatilayotgan moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishini aksiyalar bahosining tushishi, davlat obligatsiyalari daromadligining oshishi va pul-kredit siyosati qat'iylashtirilib borilishining kutilayotganligi bilan izohlash mumkin¹.

1-chizma. Rivojlangan davlatlarda moliyaviy sharoitlar indeksi (o'rtacha ko'rsatkichdan standart og'ish²)



2-chizma. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarda moliyaviy sharoitlar indeksi (o'rtacha ko'rsatkichdan standart og'ish)



Manba: Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ).

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan davlatlar qat'iylashgan moliyaviy sharoitlar va kapital oqimini chetga chiqib ketishining yuqori xavfiga duch kelishmoqda. Tashqi qarz olish xarajatlarining keskin ko'tarilishi va milliy valyuta kurslarining oshishi Rossiya bilan yaqin aloqada bo'lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarining moliyaviy sharoitlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Inflyatsiyani jilovlash uchun foiz stavkalarining oshirilishi, aksiyalar qiymatining pasayishi va tashqi qarz olish xarajatlarining yuqoriligi boshqa ko'plab bozor iqtisodiyoti

¹ International Monetary Fund, Global Financial Stability Report, April 2022, pp. 3-4.

<https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2022/04/19/global-financial-stability-report-april-2022>


² Indeks ko'rsatkichi o'rtacha qiymatidan standart og'ishning necha barobariga farq qilishini ifodalaydi.

shakllanayotgan davlatlarda moliyaviy sharoitlar qat'iy lashishiga sabab bo'ldi³.

Kovid-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan global iqtisodiy pasayishdan so'ng karantin choralarining bekor qilinishi va vaksinatsiyalash jarayonining tezlashishi natijasida yalpi talab tiklandi va past daromadli rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotini 2021-yilda 4,1 foizga o'sishiga olib keldi.


Dunyodagi geosiyosiy vaziyat va global inflyatsiya tufayli vujudga kelgan noaniqliklarga qaramay, XVJ 2022 va 2023-yillarda past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish mos ravishda 4,8 va 4,9 foiz bo'lishini prognoz qilmoqda⁴.

3-chizma. Iqtisodiy o'sish prognozlari, %



Manba: XVJ.

4-chizma. Iqtisodiy o'sish prognozlari, %



Manba: Jahon banki.

Izoh: * Prognoz.

O'zbekistonning eksport tarkibida yuqori ulushga ega bo'lgan hamkor davlatlar orasida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston hisobga olingan. Import tarkibida esa Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya va Germaniya eng yirik oltita mamlakatlar kiritilgan.


2021-yilda karantin choralarini yumshatilgandan so'ng o'rta daromadli davlatlarda iqtisodiy o'sish 6,8 foizga qayta tiklandi. Jahon banki tomonidan 2022-yilda tashqi iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli oziq-

³ International Monetary Fund, Global Financial Stability Report, April 2022, p. 4. <https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2022/04/19/global-financial-stability-report-april-2022>

⁴ International Monetary Fund, World Economic Outlook Update October 2022. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2022/10/11/world-economic-outlook-october-2022>

ovqat va energiya narxlarining oshishi o'rtacha daromadli davlatlarda iqtisodiy o'sishni 3,3 foizgacha sekinlashishiga olib kelishi taxmin qilinmoqda⁵.

5-chizma. O'zbekiston va asosiy savdo hamkor mamlakatlarning real o'sish sur'atlari, %



Manbalar: XVJ, Markaziy bank hisob-kitobi.

Izoh: * Prognoz.

Chizmadagi to'rtburchak shakl O'zbekiston va ma'lumotlari qo'llanilgan barcha davlatlar (Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Xitoy, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston) uchun YaIMning o'rtacha tortilgan o'sish sur'atlari orasidagi farqni ko'rsatadi. O'sish sur'atlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, to'rtburchak shakli ham shunchalik uzun bo'ladi. Agarda O'zbekiston YaIMining o'sish darajasi o'rtacha tortilgan o'sish sur'atidan ortiq bo'lsa, to'rtburchakning ichki qismi to'liq bo'yalgan to'q rangda va aksincha kichik bo'lsa, oq rangda bo'ladi. Vertikal qora chiziqning eng yuqori nuqtasi ma'lum yil uchun mazkur davlatlar orasida maksimum o'sish ko'rsatkichini, uning quyi nuqtasi esa minimum o'sish sur'atiga ega bo'lgan davlatning ko'rsatkichini bildiradi.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'ati 2012–2019-yillar davomida (2017 va 2018-yillarni hisobga olmaganda) asosiy savdo hamkorlarning o'rtacha tortilgan o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. 2017 va 2018-yillarda real o'sish sur'atlari mos ravishda 4,4 va 5,4 foizlarni tashkil etgan. O'zbekiston iqtisodiyoti 2020-yilda pandemiya davrida pul-kredit siyosatining yumshatilishi hamda hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosatning yuritilishi natijasida 1,9 foizga, 2021-yilda esa 7,4 foizga o'sgan. Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining ta'siri kutilganidan kuchsizroq bo'lishi, iqtisodiyot tarmoqlarida faollikning oshishi, tashqi


⁵ World Bank, Global Economic Prospects June 2022.

<https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>


savdo aylanmasi hajmining yuqori sur'atlarda o'sishini inobatga olgan holda Markaziy bank 2022-yil uchun YaIMning real o'sish sur'atini 5,0–5,5 foiz atrofida prognoz qilmoqda.

Markaziy banklar jahon iqtisodiyoti istiqbollari bo'yicha noaniqliklar ortgan bir davrda yuqori darajadagi inflyatsiyani jilovlash hamda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanishni ta'minlash o'rtasidagi qiyin tanlovga duch kelishmoqda.

6-chizma. Global inflyatsiya prognozi (iste'mol narxlari indeksi), %



7-chizma. Ayrim mahsulot turlari bo'yicha global narxlar indeksi (AQSh dollari indeksleri, 2010-yil = 100)



Manbalar: XVJ va Jahon banki.

Global inflyatsiya alohida olingan mamlakatlarning inflyatsiyalari hamda xarid qobiliyati paritetiga asoslangan YaIM qiymatidan ulush sifatida foydalangan holda o'rtacha tortilgan usulda hisoblanadi.

Pandemiyadan so'ng kechiktirilgan iste'mol talabi, ta'minot zanjiridagi uzilishlar hamda tashqi iqtisodiy o'zgarishlar tufayli yuqori oziq-ovqat va energiya narxlari 2021-yildan buyon global inflyatsiya darajasining sezilarli darajada ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

XVJning 2022-yil oktabr oyida yangilangan "Jahon iqtisodiyoti istiqboli bo'yicha hisoboti"ga (World Economic Outlook, WEO) ko'ra, joriy yilda global inflyatsiya darajasi (o'rtacha iste'mol narxlari bo'yicha) rivojlangan mamlakatlarda 7,2 foiz va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 9,9 foiz bo'lishi kutilmoqda⁶. Rivojlanayotgan mamlakatlar iste'mol savati tarkibida oziq-ovqat va energiya katta ulushni tashkil etgani sababli, ular narxidagi yuqori

⁶ International Monetary Fund, World Economic Outlook Update October 2022. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2022/10/11/world-economic-outlook-october-2022>

o'sish rivojlangan mamlakatlarga qaraganda inflyatsiya darajasiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda⁷.

Global iqtisodiy faollikning zaiflashishi va taklifning oshishi 2022-yilning II choragida yoqilg'idan tashqari boshqa tovarlar narxining pasayishiga olib keldi. 2022-yilning may-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozoridagi narxлари ketma-ket to'rtinchi oy pasayishi davom etmoqda. Jahon bankining oziq-ovqat narxлари bo'yicha indeksi (World Bank Food Price Index) 2022-yil avgust oyida aprel oyidagi eng yuqori qiymatiga nisbatan 14 foizga pastroq bo'lib, 136,4 bandni tashkil etdi (2010-yil = 100). Kanada, AQSh va Rossiyaning ishlab chiqarish darajasi yaxshilanganligi hamda Ukrainadagi Qora dengiz portlaridan eksport qilishning iyul oyida qayta tiklanganligi sababli bug'doy narxining sezilarli darajada pasayishi oziq-ovqat narxlarining tushishiga sabab bo'ldi⁸.

Dunyo bo'yicha markaziy banklar yuqori inflyatsiyaga javoban pul-kredit siyosatini qat'iy lashtirdi. Erkin suzuvchi foiz stavkalari asosida kreditlar ajratish amaliyoti mavjud bo'lgan aksariyat mamlakatlarda yuqori foiz stavkalari korxonalar va uy xo'jaliklari uchun qarzga xizmat ko'rsatish yukining oshishiga olib kelishi mumkin⁹. Natijada, defolt holatlarining ko'payishi moliyaviy tashkilotlarning kredit portfelidagi yo'qotishlariga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, inflyatsiya to'lanmagan qarzlarning real qiymatini pasaytirgan taqdirda ham¹⁰ qarz oluvchilarning daromadlari investitsiya va iste'mol xarajatlarini qoplash darajasidan oshmagan holatda qarz oluvchilar qarzga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarga duch kelishlari mumkin¹¹.

⁷ Bank for International Settlements, Annual Economic Report 2022 of the BIS, p. 14.
<https://www.bis.org/publ/arpdf/ar2022e.pdf>


⁸ Institute of International Finance, Nonfuel commodity prices fall as global economy slows, 2022, p.1.
https://www.iif.com/portals/0/Files/content/32370132_september_2022_nonfuel_commodity_prices.pdf

⁹ Bank for International Settlements, Annual Economic Report 2022 of the BIS, p. 17.
<https://www.bis.org/publ/arpdf/ar2022e.pdf>

¹⁰ To'lanmagan qarzning har qanday nominal summasining real qiymati narxlar oshishi bilan kamayadi.

¹¹ European Central Bank, Financial stability implications of higher than expected inflation, 2022.
https://www.ecb.europa.eu/pub/financial-stability/fsr/focus/2022/html/ecb.fsrbox202205_03-df74747300.en.html

8-chizma. O'zbekiston va asosiy savdo hamkor mamlakatlarning joriy hisob balansi, YalMga nisbatan foizda



Manba: XVJ.
Izoh: * Prognoz.

2021-yilda O'zbekistonning joriy hisob balansi saldosini manfiy 4,8 mlrd AQSh dollarini yoki YalMning 7 foizini tashkil qildi¹². XVJning 2022 va 2023-yillar uchun prognozlariga ko'ra, O'zbekistonning joriy hisob balansi YalMga nisbatan manfiy 3,3 hamda 4,2 foiz bo'lishi kutilmoqda¹³.


2022-yil I yarim yilligida to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobi saldosini manfiy 830,5 mln AQSh dollarini, savdo balansining manfiy saldosini 6,5 mlrd AQSh dollarini, birlamchi va ikkilamchi daromadlar saldosini esa ijobiy 5,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlardan o'tkazilgan ish haqi mablag'lari pandemiya davridan so'ng o'zining eng yuqori qiymatiga (1,5 mlrd AQSh dollari) erishib, birlamchi daromadlar saldosining ijobiy bo'lishini ta'minladi¹⁴.

¹² International Monetary Fund, World Economic Outlook database, April 2022. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2022/April/download-entire-database>

¹³ International Monetary Fund, World Economic Outlook Update October 2022, Annex Table 1.1.4. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2022/10/11/world-economic-outlook-october-2022>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi (standart ko'rinishi), 2022. <https://cbu.uz/oz/statistics/bop/690339/>

9-chizma. 2022-yil 1-iyul holatiga ayrim mamlakatlarda yalpi tashqi qarzning YalMga nisbati, %



Manbalar: Vakolatli davlat organlari, Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: * Armaniston, Belarus, Moldova, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston davlatlari hisobga olingan.


O'zbekiston hukumati 2017-yilda bozor munosabatlariga asoslangan islohotlarni o'tkazishi natijasida, xalqaro moliya tashkilotlari bilan infratuzilmaviy loyihalar, hududlarni rivojlantirish davlat dasturlari va budjetni moliyalashtirish uchun chetdan uzoq muddatli resurslar jalb qilishni faollashtirdi.

2021-yilda iqtisodiyotning 7,4 foizlik yuqori o'sish sur'ati hamda davlat tashqi qarzigina yillik cheklovlarni joriy etilishi natijasida yalpi tashqi qarzning YalMga nisbati 60 foiz atrofida barqaror saqlanib qolindi. 2021-yilda O'zbekistonning yalpi tashqi qarz darajasi MDH mamlakatlari uchun o'rtacha ko'rsatkichidan (71 foiz) past bo'ldi.


2022-yilning I yarim yilligida O'zbekistonning yalpi tashqi qarz (45,8 mlrd AQSh dollari) tarkibida uzoq muddatli qarzlari (39,8 mlrd AQSh dollari) qariyb 87 foizni tashkil etgan¹⁵.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiyasi, 2022. https://cbu.uz/upload/medialibrary/190/0tppxu240284ssxt4kg0q8zwtwb578uvh/uz_BOP_-_IIP_2Q2022..pdf

10-chizma. O‘zbekiston banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlarining YalMga nisbati, %



11-chizma. O‘zbekiston banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlarining yillik o‘shish sur‘atlari (YoY), %



2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, tijorat banklarining norezidentlar oldidagi yalpi majburiyatlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22 foizga yoki 1,6 mlrd AQSh dollariga oshib, qariyb 9 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Pandemiya davrida tijorat banklarining yalpi tashqi majburiyatlarini YalMga nisbatida sezilarli oshish kuzatilgandan so‘ng, 2021-yildan boshlab 11–12 foiz atrofida shakllandi.

Shuningdek, 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, tijorat banklarining norezidentlar oldidagi yalpi majburiyatlarining 67 foizi xorijiy banklar va xalqaro moliyaviy muassasalarning kredit va qarzlarga to‘g‘ri kelmoqda. Tijorat banklarining kredit va qarzar ko‘rinishidagi tashqi majburiyatlarining hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘zgarishsiz qoldi.

Joriy yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, tijorat banklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlari tarkibida uzoq muddatli majburiyatlar 82 foiz yoki 7,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. E‘tiborli jihati shundaki, 2020-yildan boshlab tijorat banklarining qisqa muddatli majburiyatlarining yillik o‘shish sur‘ati sezilarli sekinlashdi hamda uzoq muddatli majburiyatlarning o‘shish sur‘atiga yaqinlashdi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining yalpi tashqi majburiyatlarida uzoq muddatli majburiyatlarning yuqoriligi ushbu resurslarni uzoq muddatli manfaatli loyihalarni moliyalashtirishga sarflanishi hamda banklarning likvidlilik riskini pasaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, tijorat banklarining norezidentlar oldidagi yalpi majburiyatlarining muddati ichki kredit va valyuta bozoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, majburiyat muddatining qisqaligi tashqi mablag'larni jalb qilgan tijorat banklari uchun qarzlarni qayta moliyalashtirish xavfini oshiradi. Aksincha, uzoq muddatli qarz majburiyatlari ushbu xavfni kamaytirishga hamda tashqi shoklar ta'sirini yumshatishga yordam beradi.

1-havola. Iqlim o'zgarishi xatarlari

Bugungi kunda iqlim o'zgarishidagi noaniqliklar moliya tizimi barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Iqlim xavfining ahamiyatga molik bo'lgan ikkita asosiy turi mavjud bo'lib, ular moddiy va o'tish xavflari hisoblanadi¹⁶.


Moddiy xavflar, ya'ni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekstremal ob-havo hodisalarining keskinlashuvi va tez-tez takrorlanishi bilan bog'liq iqtisodiy xarajatlar moliyaviy aktivlar qiymatini pasaytirishi yoki majburiyatlarni oshirishi mumkin. O'tish xavflari esa kam uglerodli iqtisodiyotga moslashish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashishga qaratilgan siyosatlardagi o'zgarishlar moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymatiga ta'sir qilishi mumkin.

Moddiy xavflarning ko'payishi moliyaviy tizim uchun ham bozor, ham kredit xatarlariga olib kelishi mumkin. Bozor xatarlari, ya'ni moliyaviy aktivlar qiymatining pasayishi, banklar va boshqa moliya tashkilotlari uchun yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Moddiy xatarlar qarz oluvchilarning daromadlari kamayishi hisobiga kredit yo'qotishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Kredit risklar esa garovga qo'yilgan aktivlar qiymatining pasayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ushbu ta'sirlar birgalikda moliya tizimiga keng ta'sir ko'rsatishi, investitsiyalar qiymatini pasaytirishi, qarz beruvchilar va moliya bozorining boshqa ishtirokchilari uchun xatarlarni oshirishi mumkin.

Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga moddiy va o'tish xavflari

Moddiy va o'tish xavflari

Iqlim o'zgarishining iqtisodga xavflari ikkita asosiy kanallarga biroq ko'plab potensial ta'sirlarga ega.



Manba: XVJ.

¹⁶ Financial Stability Board, The Implications of Climate Change for Financial Stability, 2020. <https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P231120.pdf>

O'tish xavflari iqtisodiyotdagi muhim tarkibiy o'zgarishlarni, shu jumladan, investitsiyalarning qayta taqsimlanishini nazarda tutadi. Bu ko'mir, neft va gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'ilarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan korxonalariga, shuningdek, yoqilg'idan foydalanadigan biznes vakillari yoki energiya bilan bog'liq sohalarga (masalan, kommunal xizmatlar, og'ir sanoat va transport sohalari) sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bozor ishtirokchilari tomonidan to'satdan kam uglerodli iqtisodiyotga tizimlashtirilmagan ravishda o'tish moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday tizimlashtirilmagan ravishda o'tish texnologiya va davlat siyosatidagi keskin o'zgarishlar sababli yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda markaziy banklar va moliyaviy regulyatorlar iqlim o'zgarishining moliyaviy barqarorlikka ta'siriga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy sektorda iqlim risklarini boshqarish bo'yicha tajriba almashish va ilg'or xalqaro amaliyotni o'rganish maqsadida 116 a'zoni o'z ichiga olgan hamda tobora kengayib borayotgan Markaziy banklar va nazorat organlari moliyaviy tizimining ekologik tozaligini oshirish hamjamiyatiga (Network of Central Banks and Supervisors for Greening the Financial System, NGFS) a'zo bo'ldi.

II. Bank tizimi barqarorligi tahlili

2.1. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili

Kapital monandlilik koeffitsiyenti¹⁷ banklar to'lov qobiliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bazel III standartlariga ko'ra, bank jami kapitalining monandlilik koeffitsiyenti riskka tortilgan aktivlarga nisbatan kamida 8 foiz bo'lishi tavsiya etilgan. Bundan tashqari, Bazel III standartlarida bank kapitaliga nisbatan konservatsiya buferi (2,5 foiz), kontrsiklik kapital buferi (0–2,5 foiz), mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferi (aniq chegarasi belgilanmagan) kabi qo'shimcha talablarni o'rnatish ko'zda tutilgan.


O'zbekistonda bank tizimi barqarorligining joriy holati hamda Bazel III tomonidan tavsiya etilgan qo'shimcha kapital bufer talablarini ham inobatga olgan holda tijorat banklari uchun kapital monandlilik koeffitsiyenti 13 foiz qilib belgilangan. 2022-yil 1-iyul holatiga O'zbekiston bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini mustahkam darajada saqlab qolmoqda. Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan qo'yilgan minimal talablarni to'laqonli bajargan. Bank tizimi potensial yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli kapitalga ega.

Markaziy bank Bazel III tavsiyalariga mos ravishda kapitalga qo'yilgan minimal me'yoriy talablarini bosqichma-bosqich o'zgartirdi. 2015-yilda birinchi darajali kapital nisbatining talabi ikki marta 5 foizdan 8,5 foizgacha, kapital monandlilik koeffitsiyenti esa 10 foizdan 11,5 foizgacha oshirildi. Ushbu o'zgarishlarga ko'ra, birinchi darajali kapital – birinchi darajali asosiy kapital (CET1) va birinchi darajali qo'shimcha kapitalga ajratilgan. Navbatdagi o'zgartirishlarda regulyativ kapital yetarliligi va birinchi darajali kapital yetarliligi uchun minimal talab 1 foiz bandga oshirildi va 2017-yil 1-yanvardan kuchga kirdi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga ko'ra regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 13 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti K1 quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$K1 = \frac{\text{Regulyativ kapital}}{\text{Riskka tortilgan aktivlarning umumiy summasi}}$$

12-chizma. Bank tizimida kapital yetarlilik ko'rsatkichlari, %



Manba: Markaziy bank.


2017-yil 1-oktabrdagi me'yoriy o'zgartirishlar kiritilgunga qadar xususiy va boshqa tijorat banklari uchun eng kam ustav kapitali mos ravishda 5 mln va 10 mln yevroni tashkil qilgan. Yangi o'rnatilgan tartibga ko'ra, barcha tijorat banklari uchun eng kam ustav kapitalining qiymati 100 mlrd so'm etib belgilandi¹⁸. Natijada, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan yangi me'yoriy talabni bajarish maqsadida barcha banklar, ayniqsa, xususiy banklar o'z kapitallarini oshirdilar.

2020-yilning I choragida kapital monandlilik koeffitsiyenti keskin oshgan. Hukumatning qo'llab-quvvatlovchi kreditlash dasturlari hisobiga yirik davlat ulushi mavjud banklarning aktivlari tez sur'atda o'sgan. O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (O'TTJ) tomonidan kiritilgan kapital hisobidan ushbu banklar kapitallashuvi mustahkamlangan¹⁹.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 26/7-sonli qarori, 2017. <https://lex.uz/docs/3389824>

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki va "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining moliyaviy holatini yaxshilash hamda faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3694-sonli Qarori, 2018. <https://lex.uz/docs/3721642>


13-chizma. O‘zbekiston va ayrim asosiy savdo hamkor davlatlar bank sektorlarida jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati, %



Manbalar: Vakolatli davlat organlari, Markaziy bank.

2020–2021-yillarda kredit portfellari hajmining sezilarli oshishi riskka tortilgan aktivlarning o‘shish sur‘atini jadallashtirdi. Riskka tortilgan aktivlarning o‘shish sur‘ati regulyativ kapitalning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘lganligi hisobiga kapital monandlilik darajasi qariyb 6 foiz bandga kamaydi. O‘z navbatida, davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklarning kapital monandlilik darajasi qariyb 4 foiz bandga kamaydi, xususiy tijorat banklarida esa ushbu ko‘rsatkich barqarorligicha saqlanib turibdi.


14-chizma. Tizimli ahamiyatga molik banklar va boshqa banklarning kapital monandlilik koeffitsiyenti (2022-yil 1-iyul holatiga), %



Manba: Markaziy bank.

2022-yilda Markaziy bank tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash bo'yicha dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirdi. Tizimli ahamiyatga ega banklarning barchasi davlat ulushi mavjud banklar bo'lib, hukumat asosan mazkur banklar orqali turli davlat dasturlarini moliyalashtiradi²⁰. Bu esa, tizimli ahamiyatga molik banklarning kapitallashuv darajasi boshqa tijorat banklariga nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

15-chizma. Bank tizimida likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), %




Manba: Markaziy bank.

²⁰ Tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlashda bank hajmi, o'zaro bog'liqlik, qamrov va amalga oshirgan operatsiyalarning murakkabligi ko'rsatkichlari inobatga olingan.

Bank tizimi bo'yicha likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio, LCR) Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan me'yoriy minimal talablardan ancha yuqori bo'lishi banklar qisqa muddatli likvidlik shoklariga bardosh bera olishini ko'rsatmoqda. 2020-yil I choragida keskin karantin cheklovlari o'rnatilishi oqibatida iqtisodiy faollik pasayishiga qaramasdan, Markaziy bank tomonidan o'z vaqtida yetarlicha likvidlik bilan ta'minlanganligi natijasida banklarda likvidlikni qoplash koeffitsiyenti keskin pasayishining oldi olindi.

2021-yil boshida Markaziy bank tomonidan likvidlikni qoplash koeffitsiyentini hisoblash metodologiyasining o'zgartirilishi xorijiy valyutadagi sof xarajatni aniqroq baholash imkonini yaratdi. Ushbu o'zgartirishlar yuqori likvidli aktivlar hamda xorijiy valyutadagi aktivlarga nisbatan qo'yiladigan talablarni kuchaytirdi. Natijada, bank tizimida xorijiy valyutadagi likvidlikni qoplash koeffitsiyenti keskin pasaydi.

16-chizma. Bank sektori uchun sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR), %



Manba: Markaziy bank.

Bazel III standartlariga asosan bank tizimi likvidligini ta'minlash maqsadida joriy qilingan sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (Net Stable Funding Ratio, NSFR) barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati sifatida

aniqlanadi²¹. 2020-yil va 2022-yil II chorak davr oralig'ida O'zbekiston bank tizimidagi jami sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti o'rnatilgan minimal talabdan (100 foiz) yuqori darajada shakllanib, 2020-yil II choragidan boshlab o'sish trendiga ega bo'ldi.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti 2020-yil I choragida pasaygan. Ushbu pasayish pandemiya sababli joriy qilingan cheklovlar natijasida depozitlar o'sish darajasi sekinlashishi hamda yuridik shaxslarga ajratilayotgan bir yildan ortiq muddatli kreditlar hajmi sezilarli ravishda oshganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, pandemiya davrida kredit oluvchilarning moliyaviy holatini hisobga olgan holda uning bank tizimiga salbiy ta'sirini yumshatish hamda muammoli kreditlarning keskin o'zgarishlarini jilovlash maqsadida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun kreditlar bo'yicha to'lovlarga kechiktirish taqdim etildi²².


2021-yil iyul oyida 2020-yil noyabrga nisbatan milliy valyutadagi sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti 10,1 foiz bandga ko'tarildi. Bunda bir yildan yuqori bo'lgan milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining 2,4 foiz bandga²³ oshishi hamda valyuta almashuv kursining barqarorligi natijasida depozitlar hajmining sezilarli ko'payishiga sabab bo'lgan. 2022-yil davomida jami sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti 110–120 foiz oralig'ida shakllanib kelmoqda.

²¹ Basel Committee on Banking Supervision, Basel III: the net stable funding ratio, October 2014. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d295.pdf>

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni, 2020-yil 3-aprel. <https://lex.uz/ru/docs/-4780475>

²³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Pul-kredit statistikasi: Milliy valyutadagi bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari. <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/679422/>

17-chizma. Bank sektorining rentabelligi




Manba: Markaziy bank.

2020-yilda pandemiya bilan bog'liq iqtisodiy faollik pasaygan bo'lsa-da, banklar sof foydasida 2020-yil oxirigacha o'sish kuzatildi. Ammo, pandemiya 2021-yilda banklarning rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2021-yil yakuniga ko'ra, bank tizimining sof foydasi 2020-yil oxiriga nisbatan qariyb 1,8 trln so'mga kamaydi. Pandemiya cheklovlari yumshatilganligi natijasida 2022-yil I yarmida esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan banklar 1,7 trln so'mga ko'proq sof foydaga erishgan.

Banklarning rentabellik koeffitsiyentlari banklarning sof foydasi bilan bank aktivlari va kapitallari dinamikalarini bir xil sur'atlarda oshmaganligini ko'rsatmoqda. 2017-yilda kapital rentabelligi koeffitsiyenti (ROE) so'nggi 5 yillik davrdagi eng yuqori qiymatini (25 foiz) qayd etdi. 2020 va 2021-yillarda kapital rentabelligi 10 foiz atrofida saqlanib qoldi. 2020-yilning boshida banklar rentabelligining pasayishi davlat ulushi mavjud banklarda sezilarli bo'ldi. 2021-yilning IV choragida regulyativ kapitalning oshishi hamda sof foydaning kamayishi natijasida bank tizimida kapital rentabelligi pasaydi.


18-chizma. Bank tizimida aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichining dekompozitsiyasi, %



Manba: Markaziy bank.

O'zbekistonda tijorat banklari asosan an'anaviy bank faoliyati, ya'ni depozit qabul qilish va kredit ajratish bilan shug'ullanadi. Banklarning o'z xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlariga qaramasdan, moliya bozori yetarlicha rivojlanmaganligi investitsion bank xizmatlarini taklif qilish imkoniyatlarini cheklamoqda. Foizli daromadlar doimiy tarzda banklar daromadining katta qismini tashkil etib, so'nggi to'rt yil ichida foizli daromadlar va xarajatlarning ulushi ortdi.

19-chizma. Depozitning kreditga nisbati ko'rsatkichi, %



Manba: Markaziy bank.


O'zbekistonda depozitlar miqdorining kredit miqdoriga nisbatan kichik bo'lishi davlat ulushi mavjud bo'lgan yirik banklar tomonidan berilayotgan kreditlar asosan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilayotganligini anglatadi²⁴. Mazkur kreditlarni asosan markazlashgan mablag'lar, xalqaro kapital bozorlari hamda xorijiy moliya institutlaridan olingan qarzlarni, xususiylar esa asosan jalb qilingan depozitlar hisobidan kreditlash amaliyotini oshirmoqda. 2020-yilgacha bo'lgan davrda kreditlar depozitlarga nisbatan tezroq o'sdi. 2022-yilning II choragida depozitning kreditga nisbati 2018-yilning mos davridagi yuqori cho'qqisiga qaytdi.

²⁴ Depozitning kreditga nisbatining 100 foizdan ancha past bo'lishi banklar kredit ajratishni depozitlardan tashqari boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirishi kerakligini anglatadi. Aksincha, mazkur nisbatning 100 foizdan yuqori bo'lishi depozitlar yetarli darajada kredit ajratishda xizmat qilmayotganligi hamda banklar o'z imkoniyati doirasida daromad olmayotganligini ko'rsatishi mumkin.

2-havola. Xatarlar xaritasi

O'rgimchak to'ri xaritasi (spider chart)²⁵ uch yoki uchdan ko'p ko'rsatkichlarni umumlashtirilgan o'lchamda taqqoslash maqsadida foydalaniladi. Bunda o'rgimchak to'ri xaritasining markazi kuzatilayotgan ko'rsatkichning eng yaxshi (xatarsiz) darajasini, markazdan eng uzoq joylashgan nuqtasi esa eng yomon (xatarli) darajasini anglatadi. Jumladan, ko'rsatkichlarning markazga yaqinlashishi ushbu indikatorning yaxshilanishi va risklilik darajasi pasayotganligi, markazdan uzoqlashishi esa risklilik darajasi ortib borayotganligini ko'rsatadi.

1-chizma. Kredit bozorining holati



Manbalar: Statistika qo'mitasi va Markaziy bank hisob-kitobi.

Kredit bozori holati bo'yicha xatarlar xaritasiga ko'ra, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning aholi ixtiyoridagi daromadiga nisbati hamda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning depozitga nisbati ko'rsatkichlari pandemiya davridan oldingi barqaror darajasiga qaytganligini ko'rish mumkin. Xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati, foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti va banklar majburiyatining kapitalga nisbati ko'rsatkichlari esa pandemiya davridan oldingi darajasiga yetganicha yo'q.

2021–2022-yillar I yarim yilligida xususiyl sektorga ajratilgan kreditlarning YalMga nisbati ko'rsatkichi 2020-yilning mos davriga nisbatan oshgan. Bunga 2021-yildan boshlab iqtisodiy faollikning oshishi va o'z navbatida, banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning o'sishi sabab bo'ldi. Kreditlarning YalMga nisbati ko'rsatkichining o'sishi qarz yuki darajasining oshishiga olib kelishi mumkin.

Jismoniy shaxslar qarzlarning ularning ixtiyoridagi daromadlariga nisbatida 2021-yilda ijobiy tomonga o'zgargan. Bunda aholi ixtiyoridagi daromadlar oshgan

holda to'lovchanlik qobiliyati ham ko'tarilgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning depozitlarga nisbatan yuqori bo'lishi kreditlar yetarli ravishda depozitlar hisobidan moliyalashtirilmayotganligini ko'rsatadi. 2022-yilning I yarim yilligi davomida jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha real foiz stavkalari 2021-yilning mos davriga nisbatan oshishi²⁶ depozitlar hajmida sezilarli o'sishiga sabab bo'ldi hamda 2020 va 2021-yillarning mos davriga nisbatan risklilik darajasining pasayishiga olib keldi.

Banklar jami qarz majburiyatlarining jami kapitalga nisbati banklar faoliyatini qaysi manbalar hisobiga amalga oshirayotganligini ko'rsatadi. 2020-yildan boshlab bir qator yirik banklar tomonidan xalqaro kapital bozorlarida korporativ obligatsiyalarni chiqarish orqali jalb etilgan mablag'lar banklarning qarz majburiyatlari oshishiga olib keldi. Buning natijasida 2021–2022-yillarda banklar uchun ko'shimcha qarz majburiyatining oshishi xatarlilik darajasining yomonlashuviga olib keldi.

²⁵ The Bank of Korea, Financial Stability Report, April 2008, pp. 113-115.

https://www.bok.or.kr/viewer/skin/doc.html?fn=FILE_201803300851194481.pdf&rs=/webview/result/E0000737/200806

O'rgimchak to'ri xaritasi Koreya bankining 2008-yilgi moliyaviy barqarorlik sharhida keltirilgan moliyaviy barqarorlik xaritasi uchun qo'llanilgan metodologiya asosida ishlab chiqildi. O'rgimchak to'ri xaritasini tuzish uchun dastlab har bir indikator uchun ma'lum davriy oraliq tanlab olinadi. Shundan so'ng, berilgan ma'lumotlardan standartlashtirilgan ko'rsatkichlarni (Z-score) hisoblash uchun quyidagi formula qo'llanadi:

$$Z_{i,t} = \frac{x_{i,t} - \bar{x}}{\sigma_{i,t}}$$

Bu yerda, $x_{i,t}$ —indikator, \bar{x} —indikatorning o'rta arifmetigi, $\sigma_{i,t}$ —indikatorning standart chetlashishi.


Hisoblangan ma'lumotlar quyidagi logarifmik funksiyaning formulasi orqali xaritaga joylashtiriladi: $r_{i,t} = \frac{1}{(1 + \exp(-yoz_{i,t}))}$

Bunda har bir ko'rsatkichning minimal va maksimal chegarasi 0 va 1 oraliqda bo'ladi. Agar, natija 1 ga yaqin bo'lsa, risklilik darajasi yuqoriligini, 0 ga yaqin bo'lsa risklilik darajasi pastligini ifodalaydi.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022-yil I yarim yillik Statistik byulleten, 2022.

<https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/672777/>

2-chizma. Moliyaviy barqarorlik holati




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Bank sektori bo'yicha xatarlar xartasiga ko'ra, faqatgina substandart va undan quyi kreditlar ulushi ko'rsatkichi pandemiya davridan oldingi darajasiga qaytmaganligini ko'rish mumkin.

Bank sektorida jami aktivlarning o'sish sur'atida 2020–2022-yillarning I yarmida sezilarli darajada o'zgarish kuzatilmadi. Banklarning kredit portfelida substandart va undan quyi toifadagi kredit turlarining mavjudligi kreditlarning o'z muddatida qaytarilishida muammolar borligini ifodalaydi. Mazkur kredit turlarining yuqori ulushga ega bo'lishi kreditlarning qaytmasligi bo'yicha risklilik darajasi baland ekanligini ko'rsatadi. 2021–2022-yillarda pandemiyadan keyingi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash maqsadida kreditlash hajmining oshishi natijasida substandart va quyi toifadagi kreditlar ulushining o'sishiga turtki bo'lgan.

2021-yilning I yarim yilligida 2020-yilning mos davriga nisbatan banklar aktivlarining rentabelligi ko'rsatkichi sezilarli pasaygan. Bunda 2020-yil III choragidan boshlab banklarning jami aktivlarining o'sish sur'ati soliq to'langunga qadar foydasining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi aktivlarning rentabelligi pasayishiga sabab bo'lgan. 2022-yil 1-iyul holatiga banklar aktivlarining rentabelligi ko'rsatkichi pandemiya davridan keyingi iqtisodiy faollikning oshishi natijasida 2020–2021-yillarning mos davriga nisbatan keskin ko'tarildi hamda bank rentabelligi bo'yicha minimal xatarli hududga yaqinlashdi.

3-chizma. Bank tizimi bardoshliligi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Bank tizimining moliyaviy barqarorlik holati bo'yicha xatarlar xaritasiga ko'ra, faqatgina likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti pandemiya davridan oldingi darajasiga qaytganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning 1-iyul holatiga regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti 2020 va 2021-yillarning mos holatiga nisbatan riskka tortilgan aktivlarning oshishi va muammoli kreditlarning ulushi sezilarli o'sishi sababli yomonlashgan. Banklarning likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti, jumladan, xorijiy valyutadagi likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti 2021-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha 2020-yilning mos davriga nisbatan markazdan uzoqlashgan va bu holat Markaziy bankning 2021-yilning avvalida joriy qilingan likvidlilikni qoplash koeffitsiyenti bo'yicha hisoblash metodologiyasiga kiritgan o'zgartirishlar (xorijiy valyutadagi likvid aktivlarga qo'yilgan talablarning kuchaytirilishi) ta'siri bilan izohlanadi.


2.2. Muammoli kreditlar

2019-yilning IV choragidan boshlab banklarning muammoli kreditlari bo'yicha ma'lumotlari shaffofligini oshirish yuzasidan Markaziy bank nazorati kuchaytirilganligi muammoli kreditlarni to'liq yoritishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, Kovid-19 cheklovlari bilan bog'liq iqtisodiy pasayish muammoli kreditlarning sezilarli o'sishiga turtki bo'ldi.

20-chizma. Turli mamlakatlarda muammoli kreditlar ulushi, %



21-chizma. Turli mamlakatlarda muammoli kreditlar ulushi, % (2022-yil 1-iyul holatiga)



Manbalar: Vakolatli davlat organlari, XVJ va Markaziy bank.


Izoh: * Armaniston, Gruziya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlari hisobga olingan. Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon davlatlari ular bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli inobatga olinmagan.

† Armaniston, Belarus, Moldova, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlari hisobga olingan. Rossiya, Tojikiston va Ozarbayjon davlatlari ular bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli inobatga olinmagan.

2016–2019-yillarda O'zbekistonda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 0,7–1,5 foiz atrofida bo'lib, bu MDH davlatlari orasida eng past darajada shakllangan. 2020-yilning I choragidan boshlab muammoli kreditlarning tez sur'atlarda o'sishi va 2022-yil 1-iyul holatiga kelib 4,9 foiz darajasida shakllanganligi pandemiya davrida iqtisodiy faollikning sekinlashishi sababli biznes subyektlar va aholi daromadlari qisqarishiga mos ravishda to'lovga qobiliyatligi pasayishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda banklar tomonidan kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralari yetarli darajada shakllantirishga katta urg'u berilmoqda. 2018-yilning II yarmidan 2021-yilgacha bo'lgan davrda banklarning ehtimoliy kredit yo'qotishlarini qoplash uchun shakllantiriladigan zaxiralarning o'sish sur'ati muammoli kreditlar o'sish sur'atidan pastroq bo'ldi.

22-chizma. Bank tizimida muammoli kreditlar va ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralar, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

2021-yil boshidan 2022-yil I yarim yillik yakunigacha bo'lgan davrda muammoli kreditlar tarkibida asosan qoniqarsiz hamda shubhali kreditlar miqdori mos ravishda 3,5 va 4,2 martaga oshdi. Bu esa, muammoli kreditlarning miqdori ular bo'yicha shakllantirilgan zaxira miqdoriga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishiga turtki bo'ldi²⁷. Natijada, muammoli kreditlarning kapitalga nisbati 10 foiz bandga oshdi, muammoli kreditlarni qoplash darajasi esa 27 foiz bandga pasaydi.

Jami kreditlar hajmining o'sishi muammoli kreditlar ulushining pasayishiga ta'sir ko'rsatdi. So'nggi davrlarda valyuta almashinuv kursining nisbatan barqaror dinamikaga ega bo'lganligi kurs o'zgarishining muammoli kreditlar ulushining yillik o'zgarishiga ta'sirini kamaytirdi.

²⁷ Qoniqarsiz kreditlar uchun 25 foiz, shubhali kreditlar uchun 50 foiz va umidsiz kreditlar uchun 100 foiz zaxira me'yorlari o'rnatilgan.

23-chizma. Muammoli kreditlar ulushining yillik o'zgarishi dekompozitsiyasi, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.


Xususiy banklarda muammoli kreditlarning ulushi davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarga nisbatan pastroq shakllangan. Buning asosiy sabablari sifatida mijozlarga yo'naltirilgan biznes modeli, ilg'or korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish siyosati, kreditlar ajratish bo'yicha qat'iy talablar hamda yirik korporativ kreditlarga nisbatan iste'mol kreditlarini ajratishga e'tibor qaratilganligi bilan izohlash mumkin.

Xususiy banklardagi kredit portfelining sifati davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarga nisbatan ertaroq yomonlasha boshladi hamda muammoli kreditlar ulushiga ta'sir etuvchi omillarga nisbatan ta'sirchan ekanligini ko'rsatdi. Xususiy banklar davlat ulushi mavjud bo'lgan banklardan farqli ravishda boshqarish uchun qulay bo'lgan kichik kredit portfellariga ega. 2021-yil boshida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarda muammoli kreditlar ulushining keskin o'sishi kuzatilib, 2021-yil o'rtalariga kelib xususiy banklar ko'rsatkichidan oshib ketdi hamda yuqoriligicha saqlanib qolindi.

24-chizma. Davlat ulushi mavjud banklar va xususiy banklarning jami kreditlari tarkibidagi muammoli kreditlar ulushi, %




25-chizma. Jami kreditlar tarkibida muammoli kreditlarning ulushi va kredit hajmining o'sishi, %



Manba: Markaziy bank.

Kredit hajmining o'sishi va muammoli kreditlar ulushi o'rtasida kuchsiz bog'liqlik mavjud. 2017-yilning III choragida valyuta liberalizatsiyasi banklarda xorijiy valyutadagi aktivlarining ikki karra oshishiga va jami kreditlarning qariyb 50 foizga o'sishiga olib kelgan. 2019-yil yakunlariga ko'ra, davlat ulushi mavjud bo'lgan yirik banklarning qariyb 40 mlrd so'm ekvivalentidagi kreditlari O'TTJ balansiga o'tkazilishi hisobiga kreditlar hajmining o'sishi sekinlashgan.

26-chizma. Sektorlar bo'yicha muammoli kreditlarning taqsimlanishi, %




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

So'nggi olti yil mobaynida sanoat sohasi muammoli kreditlar hajmida eng katta ulushga ega bo'ldi. Qishloq xo'jaligi muammoli kreditlar hajmi jami muammoli kreditlar tarkibida keyingi o'rinni egalladi. 2020-yilning I choragidan, ya'ni pandemiya boshlanganidan so'ng boshqa tarmoqlarning ulushi, xususan, jismoniy shaxslarga ajratilgan muammoli kreditlarning ulushi o'sa boshladi.


2.3. Qarz yuki tahlili

2020-yilda O'zbekistonda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 36 foizni tashkil etdi. O'zbekistonning ko'rsatkichi daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar²⁸ bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga yaqin, biroq daromadi o'rtadan yuqoriroq bo'lgan davlatlarning²⁹ o'rtachasidan (144 foiz) esa ancha past bo'ldi. O'zbekistonda xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar ko'rsatkichlariga deyarli mos keldi.

27-chizma. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati va barcha davlatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, 2020 yil



28-chizma. Xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati va daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, 2020 yil




Manbalar: Jahon banki va Markaziy bank hisob-kitobi.

²⁸ 2021-yil 1-iyul holatiga Jahon banki tomonidan mamlakatlarning daromadiga ko'ra tasniflashda o'rnatilgan mezonga asosan daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar guruhiga yalpi milliy daromad (YaMD)ning aholi jon boshiga qiymati 1046–4095 AQSh dollari oralig'ida bo'lgan 55 ta davlat, xususan, O'zbekiston ham kiritilgan.


²⁹ 2021-yil 1-iyul holatiga Jahon banki tomonidan mamlakatlarning daromadiga ko'ra tasniflashda o'rnatilgan mezonga asosan daromadi o'rtadan yuqoriroq bo'lgan davlatlar guruhiga YaMDning aholi jon boshiga qiymati 4096–12695 AQSh dollari oralig'ida bo'lgan 55 ta davlat kiritilgan.

O'zbekistonda umumiy kreditlarning YaIMga nisbati iqtisodiy rivojlanish darajasi o'xshash bo'lgan mamlakatlari bilan solishtirish maqsadida protsentil chegaralaridan³⁰ foydalanildi. 2016-yilgacha O'zbekistondagi jami kreditlarning YaIMga nisbati MDH va o'rta daromadli mamlakatlarning pastki pog'onadagilari bo'yicha mediana ko'rsatkichidan past shakllangan bo'lsa, 2017-yildan O'zbekistonda kreditlash jarayonining jadallashuvi natijasida kreditlar hajmining o'sish sur'ati YaIM o'sish sur'atidan yuqori bo'ldi.

29-chizma. MDH davlatlari* bo'yicha jami kreditlarning YaIMga nisbati, %



30-chizma. Daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar bo'yicha jami kreditlarning YaIMga nisbati, %




Manbalar: Jahon banki, vakolatli organlar va Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: * Armaniston, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston.


2019-yilda O'zbekistondagi jami kreditlarning YaIMga nisbati daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar bo'yicha mediana ko'rsatkichiga deyarli tenglashdi. 2021-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda jami kreditlarning YaIMga nisbati MDH mamlakatlarining mediana ko'rsatkichidan sezilarli farq bilan oshib ketdi.

³⁰ Jami ko'rsatkichlarning eng past va eng yuqori 25 foizlarini inobatga olmagan holda chegaralarni belgilash orqali aynan o'rganilayotgan ko'rsatkichning ushbu oraliqda joylashgan o'rni hamda mediana chizig'idan qanchalik chetlashishini ifodalovchi vizual tahlil turi.

31-chizma. Jami kreditlarning YalMga nisbati tarkibi, %



32-chizma. Kredit qoldig'ining yillik o'sishi (YoY), %




Manba: Markaziy bank.


Qarz oluvchilar turlari bo'yicha umumiy kreditning YalMga nisbati shuni ko'rsatmoqdaki, yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hajmi bank tizimidagi kredit portfelining qariyb $\frac{3}{4}$ qismini tashkil qiladi. Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi past bo'lsa-da, u o'sib bormoqda. Jumladan, 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foizli bandga oshib, 23 foizni tashkil etdi.

Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga chet el valyutasida kredit berishi cheklanganligi sababli milliy valyuta kursining o'zgarishi jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmiga ta'sir qilmadi. 2019-yil oxirida yuridik shaxslarga berilgan qariyb 40 mlrd so'mlik kreditlarni banklar balansidan O'TTJ balansiga o'tkazilishi natijasida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning o'sishi qariyb 31 foizga kamaydi. 2021–2022-yillarda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining yillik o'sish sur'atlari 30 foiz atrofida barqaror shakllandi. 2021-yil boshidan 2022-yil II choragi yakunigacha bo'lgan davr oralig'ida yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'ining o'sish sur'ati 19 foiz bandga kamaydi.

33-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati, %



34-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldiqlari, trln so'm




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Ipoteka kreditlari jismoniy shaxslarga ajratilgan barcha kreditlarning qariyb yarmiga to'g'ri kelmoqda va 2022-yilning 1-iyul holatiga YaIMga nisbatan taxminan 5 foizni tashkil etdi. Mikroqarz tez ommalashib borayotgan yangi kredit mahsuloti bo'lib, iste'mol kreditlari bilan deyarli bir xil ulushga ega bo'lmoqda. Mikroqarznining ulushi jadal ravishda oshib borayotganligi uning boshqa kredit turlariga nisbatan, jumladan, iste'mol kreditlariga nisbatan ortiqcha rasmiylashtirish jarayonlarisiz olish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.


Qarzga xizmat ko'rsatish nisbati (debt service ratio, DSR) jami aholining yoki aynan qarz oluvchilar daromadlarining qancha qismi qarzni (asosiy qarz hamda foiz to'lovi) so'ndirish uchun sarflanishini ifoda etadi³¹.

³¹ Drehmann, M. and M. Juselius (2012): "Do debt service costs affect macroeconomic and financial stability?", BIS Quarterly Review, September. https://www.bis.org/publ/qtrpdf/r_qt1209e.pdf.

35-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlar bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati, %



36-chizma. Jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati, %



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

O'z navbatida, qarzga xizmat ko'rsatish nisbatini hisoblashda kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, summalari, muddatlari hamda kredit oluvchilarning ixtiyoridagi daromadi inobatga olingan³².

Jami kredit oluvchilar bo'yicha hisoblangan qarzga xizmat ko'rsatish nisbati 2019-yil boshidan 2022-yil I choragigacha bo'lgan davr oralig'ida ajratilgan kreditlar bo'yicha jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbatida pasayish tendensiyasi kuzatilib, 15 foiz bandga pasaygan.

2019-yil IV choragida o'tgan chorakka nisbatan qarzga xizmat ko'rsatish nisbatining keskin pasayishi ajratilgan kreditlar hajmining kamayishi hamda ajratilgan kreditlar tarkibida uzoq muddatli kreditlar ulushining ortishi natijasida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, 2020–2021-yillarda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi hamda ularning jami

³² Kredit oluvchi jismoniy shaxslarning qarzga xizmat ko'rsatish nisbati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$DSR_{j,t} = \frac{i_{j,t}}{(1 - (1 + i_{j,t})^{-s_{j,t}})} * \frac{D_{j,t}}{Y_{j,t}}$$

Bu yerda:

- DSR – qarzga xizmat ko'rsatish nisbati
- i – ajratilgan kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi
- s – ajratilgan kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik muddati
- D – kredit bo'yicha qoldiq summasi
- Y – kredit oluvchilarning ixtiyoridagi yillik daromadi
- j – kredit turi
- t – yillar

choraklik daromadlarining mutanosib ravishda o'zgarishi natijasida kredit oluvchilarning ixtiyoridagi daromadlarining o'rtacha 12 foizi kreditlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishga yo'naltirilgan.

2022-yil II choragida jami kredit oluvchilarning choraklik daromadlari o'tgan davrlarga nisbatan yuqori qiymatiga erishgan bo'lsa-da, ajratilgan kreditlar hajmining sezilarli darajada oshgani (o'tgan chorakka nisbatan 31 foizga) hisobiga qarzga xizmat ko'rsatish nisbati 4 foiz bandga o'sgan.

2019-yil davomida jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbati 60 foiz atrofida shakllandi. 2020-yil I choragidagi ko'rsatkichning keskin ko'tarilishiga jismoniy shaxslar uchun ajratilgan kreditlar hajmida yirik qarz oluvchilar ulushining³³ 35 foiz bandga ortishi sabab bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, ipoteka krediti oluvchilarning jami choraklik daromadiga nisbatan ajratilgan kreditlar hajmi nomutanosib tarzda yuqori bo'lishiga olib kelgan. Bundan tashqari, minimal iste'mol xarajatlarining 11 foizga va har bir ipoteka kredit oluvchiga to'g'ri keladigan kredit summasining³⁴ 82 foizga oshishi qarzga xizmat ko'rsatish nisbatining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

2021-yilning II choragida ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbatida keskin o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, 2021-yilning II choragida har bir ipoteka krediti oluvchilarga to'g'ri keladigan kredit summasining hamda o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasining oshishi qarzga xizmat ko'rsatish nisbatining sezilarli o'sishiga olib kelgan. O'z navbatida, 2022-yilda ipoteka kreditlari bo'yicha qarzga xizmat ko'rsatish nisbatida deyarli o'zgarish kuzatilmadi hamda 65 foiz atrofida barqaror shakllandi.

³³ Yirik kredit oluvchilar sifatida 100 mln so'mdan yuqori bo'lgan kreditlar olingan.


³⁴ Jami kredit summasining jami kredit oluvchilar soniga nisbati.

III. Makroprudensial siyosat vositalari

3.1. Kredit to'lovini daromadga nisbati hamda kreditni garov qiymatiga nisbati

Jahon amaliyotida markaziy banklar moliya tizimining barqarorligini ta'minlash va tizimli risklarni yumshatish maqsadida bir qator makroprudensial vositalardan foydalanadi. O'z navbatida, makroprudensial vositalariga kapitalning konservatsiya buferi, kontrsiklik kapital buferi, mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer, kreditni garov qiymatiga nisbati (Loan-to-value, LTV) hamda kredit to'lovining daromadga nisbati (Payment-to-income, PTI) bo'yicha cheklovlar va boshqalar kiradi. Bugungi kunda O'zbekistonda kreditni garov qiymatiga nisbati va kredit to'lovini daromadga nisbati kabi makroprudensial vositalar amaliyotda qo'llanib kelinmoqda.

37-chizma. Jami ipoteka kreditlari bo'yicha kredit to'lovlarini daromadga nisbati (PTI) ko'rsatkichi taqsimlanishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

2020-yilda Markaziy bank kredit to'lovining daromadga nisbati 50 foizdan ortiq bo'lgan jismoniy shaxslarga kreditlar berish bo'yicha cheklovni joriy qildi³⁵. Kreditlar hajmi ulushida ipoteka kreditlarining

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning kreditlar (mikroqarzarlar) bo'yicha qarz yukini hisoblash tartibi, qarz yukining ruxsat etilgan miqdori, shuningdek qarz yuki o'sishini cheklash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 24/5-sonli qarori, 2019. <https://lex.uz/docs/4654149>

salmog'i yuqoriligi sababli kredit to'lovining daromadga nisbati ipoteka kreditlari bo'yicha tahlil qilingan³⁶.

2018–2021-yillarda jami ipoteka kreditlari bo'yicha kredit to'lovining daromadga nisbati dinamikasiga ko'ra kredit ajratish vaqtida kredit to'lovini daromadga nisbati 51 foizdan ortiq bo'lgan kreditlarning ulushi juda yuqori bo'lgan. Buni Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag'lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish to'g'risidagi nizomga³⁷ ko'ra kredit to'lovining daromadga nisbati 70 foizdan oshmagan jismoniy shaxslarga ipoteka kreditlari olish uchun ruxsat berilishi bilan izohlash mumkin. Bunda qarz yukini hisoblashda ipoteka krediti olishga mablag'lari yetarli bo'lmagan qarz oluvchilarga birgalikda qarz oluvchilarning daromadlarini hisobga olish imkoni mavjud. Birgalikda qarz oluvchilar qarzdor bilan birgalikda olingan kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lashga mas'ul hisoblanadi. Bunday amaliyotda qarz oluvchilar guruhi uchun ipoteka krediti to'lovini daromadga nisbati kamayishi, asosiy qarz oluvchi uchun esa ushbu ko'rsatkich oshishi mumkin.

2021-yilda Markaziy bank tomonidan kredit summasini garov summasiga nisbati (LTV) ko'rsatkichi joriy qilingan³⁸. Bunda kredit summasini garov summasiga nisbati uchun bevosita cheklovlar emas, balki ipoteka kreditining tavakkalchilik darajasidan kelib chiqqan holda bilvosita usulda tartibga solish belgilangan. Kredit summasining garov summasi nisbatlariga cheklovlar tavsakkalchilik darajalaridan kelib chiqib quyidagi guruhlariga taqsimlangan³⁹:

³⁶ Jami ipoteka kreditlari bo'yicha kredit to'lovining daromadga nisbati qarz oluvchining ma'lum bir ipoteka bo'yicha oylik kredit to'lovlarini qarz oluvchining oylik daromadiga nisbati orqali aniqlanadi.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag'lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 56-sonli qarori, 2021. <https://lex.uz/uz/docs/5266510>

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 28/22-sonli qarori, 2021. <https://lex.uz/docs/5292850>

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 14/3-son qarori, 2015. <https://lex.uz/docs/2699536>


1-jadval. Ipoteka kreditlarining tavakkalchilik darajalari

Tavsifi	Kredit summasini garov summasiga nisbati (LTV)				Sud jarayonidagi va (yoki) belgilangan muddatda undirilmagan qarzdorliklari mavjud bo'lgan kreditlar
	LTV < 50%	50% ≤ LTV < 75%	75% ≤ LTV < 100%	100% ≤ LTV	
Tavakkalchilik darajasi	35%	50%	100%	150%	200%

Manba: Markaziy bank.

2021-yilda LTV ko'rsatkichi taqsimlanishida yuqori riskli ipoteka kreditlari, ya'ni kredit summasini garov summasiga nisbati 76–80 foiz oralig'ida bo'lgan ipoteka kreditlari eng katta ulushni tashkil etdi. Kredit summasining garov summasiga nisbati uchun bilvosita cheklovning joriy etilishi ipoteka kreditlarining tavakkalchilik darajasini pasaytirishga xizmat qildi. O'z navbatida, Markaziy bank kredit summasining garov summasiga nisbatini kreditlarning tavakkalchilik darajasiga bog'lash orqali tijorat banklari uchun ushbu talabni me'yoriy prudensial ko'rsatkichlari asosida bajarish imkonini berdi.


38-chizma. Uy-joy sotib olish uchun ajratilgan kreditlar summasini ularning garov summasiga nisbati (LTV) ko'rsatkichining taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Birlamchi bozor uchun ajratilgan ipoteka kreditlari yangi qurilgan yoki qurilayotgan uylar uchun ajratiladi. Bunda uy-joy qurish kompaniyalari tomonidan ko'chmas mulk bozorida to'g'ridan-to'g'ri taklif yaratadi.

39-chizma. Birlamchi bozor uchun ajratilgan ipoteka kreditlari summasini ularning garovi summasiga nisbati (LTV) ko'rsatkichining taqsimlanishi



40-chizma. Ikkilamchi bozor uchun ajratilgan ipoteka kreditlari summasini ularning garov summasiga nisbati (LTV) ko'rsatkichining taqsimlanishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Banklar uchun birlamchi bozordagi uy-joylar uchun ajratilgan kreditlarning tavakkalchilik darajasi quyidagi sabablarga ko'ra pastroq hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi aholini uy-joy bilan ta'minlash davlat dasturlari doirasida tijorat banklariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar uchun mablag'lar ajratishi;
- qarz oluvchining daromadi kredit to'lovlarini qoplash uchun yetarli bo'lmagan hollarda Moliya vazirligining dastlabki to'lov yoki kredit foiz to'lovlarini qisman subsidiyalash dasturining mavjudligi;
- banklar tomonidan qurilish kompaniyalari ikkilamchi bozorda mulk sotadigan jismoniy shaxslarga nisbatan ishonchliroq sifatida baholanishi.


Bundan tashqari, ayrim davlat dasturlariga ko'ra, uy-joy oluvchilar uy qiymatining kamida 15 foizi miqdorida dastlabki to'lovni amalga oshirishlari shart. Shu sabablarga ko'ra, banklar tomonidan kredit summasini garov

summasiga nisbati ko'rsatkichi yuqori bo'lgan birlamchi bozor uchun ipoteka kreditlarini ajratish ma'qul ko'riladi.

Aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida tijorat banklari tomonidan ko'p qavatli uylar qurish uchun kreditlar ajratib kelinmoqda. Xususan, 2022-yil 1-sentabr holatiga tijorat banklari tomonidan jami ajratilgan kreditlarning qoldig'i 3 trln so'mni tashkil etmoqda. 2022-yilning yanvar-avgust oylarida banklar tomonidan uy-joy qurilishi (529 ta) uchun 1,2 trln so'mlik kreditlar ajratilgan.

O'z navbatida, qurilib bitkazilgan 169 ta uylarning 3169 ta xonadonlari (1,1 trln so'm) sotilmayotganligini ta'kidlash lozim. Bu esa, joriy yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, 47 ta pudratchi tashkilotlarning tijorat banklari oldida muddati 90 kundan oshgan jami 392 mlrd so'mlik muammoli kreditlari vujudga kelgan. Bunda pudratchi tashkilotlar tomonidan banklar oldidagi qarzlarni so'ndirish maqsadida yirik hajmdagi sotilmagan uylarni bozor bahosidan pastroq narxlarda sotilishi mumkin. Bu esa, uy-joy narxlarining dinamikasi pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunda uy-joy narxlarining keskin va kutilmagan tarzda tushib ketgan taqdirda qarz oluvchilarning ko'chmas mulklarining qiymati ipoteka kreditlari qiymatidan pasayib ketishi mumkin. Bunday vaziyatda qarz oluvchilar o'zlarining ipotekalarini to'lamaslik holatlari avj olishi mumkin va natijada muammoli ipoteka kreditlarning oshishi hamda bank aktivlari sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

41-chizma. Avtoullov sotib olish uchun ajratilgan kreditlar summasini ularning garov summasiga nisbati (LTV) ko'rsatkichining taqsimlanishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab tijorat banklarida jismoniy shaxslarga avtokredit ajratish amaliyoti jadallashdi. O'z navbatida, to'yinmagan avtomobil bozorida avtokreditlarga bo'lgan talabning yuqoriligi va avtokreditlar berish amaliyotining ommalashayotganligi natijasida kredit hajmi tez sur'atlarda o'sdi hamda avtokreditlar bo'yicha tavakkalchilik darajasining oshish xavfi paydo bo'ldi. Ushbu xavflarni bartaraf etish maqsadida 2019-yilda Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga kredit summasining garov summasiga nisbati 75 foizdan yuqori bo'lgan barcha avtokreditlar uchun xavf darajasini 300 foiz qilib belgilashga qaror qildi⁴⁰. Natijada, kreditning garov qiymatiga nisbati 75 foizdan ortiq bo'lgan kreditlar soni kamaydi. 2021-yilda avtomobillarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatlashuvini hisobga olgan holda Markaziy bank avtokreditlar bo'yicha belgilangan 300 foizlik xavf darajasini bekor qildi⁴¹.

3.2. Tizimli ahamiyatga molik banklarga qo'shimcha bufer joriy qilish imkoniyatlari

2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozidan so'ng Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (keyingi o'rinlarda Bazel qo'mitasi) banklar likvidligi va kapital monandligiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirdi hamda yangi makroprudensial instrumentlarni, jumladan, kapitalning konservatsiya buferi (capital conservation buffer, CCoB) va kontrsiklik kapital buferini (countercyclical capital buffer, CCyB) amaliyotga tatbiq qilish dasturlari va metodologiyalarini ishlab chiqdi⁴². Inqiroz natijasida AQShning to'rtinchi eng yirik investitsion bankining (Lehman Brothers) bankrot bo'lish oqibatlarini hamda yirik banklarning moliyaviy holati yomonlashishi butun mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ("too big to fail") esa, moliyaviy tizim regulyatorlari tomonidan aynan tizimli ahamiyatga molik banklar uchun qo'shimcha buferlar joriy qilish zarurati

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 2/3-sonli qarori, 2019. <https://lex.uz/docs/4230138#4234642>

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 28/22-sonli qarori, 2021. <https://lex.uz/docs/5292850>

⁴² Basel Committee on Banking Supervision, The capital buffers in Basel III - Executive Summary, 2019. https://www.bis.org/fsi/fsisummaries/b3_capital.htm

paydo bo'ldi⁴³. Qo'shimcha kapital buferini joriy qilishdan asosiy maqsad tizimli ahamiyatga molik banklarning nobarqaror bo'lishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarning moliya tizimi hamda iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish hisoblanadi.

Aksariyat davlatlar mahalliy tizimli ahamiyatga ega banklarni aniqlash metodologiyasini Bazel qo'mitasining ko'rsatmalari⁴⁴ asosida ishlab chiqqan. Masalan, Yevropa bank nazorati organi (European Banking Authority, EBA) Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun mahalliy tizimli ahamiyatga ega banklarni aniqlash bo'yicha yo'riqnomani⁴⁵ ishlab chiqqan. Bazel qo'mitasining ko'rsatmasiga ko'ra mahalliy tizimli ahamiyatga ega banklar uchun qo'shimcha kapital buferi bo'yicha majburiyat to'liq birinchi darajali asosiy kapital (Common Equity Tier 1, CET1)⁴⁶ bilan qoplanishi lozim.

Xalqaro tajriba

O'rganilgan xorij mamlakatlarning mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar uchun buferning orasida eng ko'p tarqalgan maksimal bufer darajasi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 2 foizni tashkil etmoqda. Yevropa mamlakatlaridagi tizimli ahamiyatga molik banklar uchun eng yuqori bufer darajasi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 3 foizni tashkil etmoqda⁴⁷. Biroq, Yevropa komissiyasining ruxsati bilan ushbu bufer darajasi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 3 foizdan yuqori ham bo'lishi mumkin.

⁴³ Basel Committee on Banking Supervision, Global systemically important banks: assessment methodology and the additional loss absorbency requirement, 2011. <https://www.bis.org/publ/bcbs207.pdf>


⁴⁴ Basel Committee on Banking Supervision, The G-SIB assessment methodology – score calculation, 2014. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d296.pdf>

⁴⁵ European Banking Authority, Guidelines on criteria for the assessment of O-SIIS, 2014. <https://www.eba.europa.eu/documents/10180/930752/EBA-GL-2014-10+%28Guidelines+on+O-SIIS+Assessment%29.pdf>

⁴⁶ Basel Committee on Banking Supervision, A framework for dealing with domestic systemically important banks, 2012. <https://www.bis.org/publ/bcbs233.pdf>
Birinchi darajali asosiy kapital bankning oddiy aksiyalari va taqsimlanmagan foydasi ko'rinishidagi eng sifatli kapitalidan tashkil topib, bank regulyativ kapitalining 60 foizidan kam bo'lmali lozim.

⁴⁷ European Parliament and the Council of the European Union, Directive (EU) 2019/878 of the European Parliament and of the Council, 2019. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:32019L0878&from=EN>

42-chizma. Turli xil mamlakatlarda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun o'rnatilgan bufer darajalari, riskka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda



Manba: Vakolatli davlat organlari.

Ayrim mamlakatlarda (Shimoliy Makedoniya⁴⁸, Gongkong⁴⁹) eng yuqori bufer darajasi 3,5 foizni tashkil etmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yuqori sur'atlarda tizimli ahamiyatga ega bo'lib borayotgan banklarni kelajakda yanada tizimli ahamiyatli bo'lishidan qaytarish hisoblanadi. Avstraliya (1 foiz)⁵⁰, Kanada (2,5 foiz)⁵¹ va Yangi Zelandiyada (2 foiz)⁵² tizimli ahamiyatga molik banklar uchun yagona bufer joriy qilingan.

Bir qator mamlakatlarda tizimli ahamiyatga molik banklarga o'rnatiladigan bufer pog'onali davr (phase-in period) asosida joriy qilingan. Bundan asosiy maqsad banklarga yetarlicha kapital zaxira shakllantirish va yangi buferga moslashish uchun imkoniyat berishdir. Bir qator Yevropa

⁴⁸ National Bank of the Republic of North Macedonia, List of Systemically Important Banks, 2022. https://www.nbrm.mk/content/Regulativa/Lista_identifikuvani_sistemski_znacajni_banki_2021_ENG.pdf

⁴⁹ Hong Kong Monetary Authority, CA-B-2 "Systemically Important Banks" (V2) dated 23.04.2021, pp. 19–20. <https://www.hkma.gov.hk/media/eng/doc/key-functions/banking-stability/supervisory-policy-manual/CA-B-2.pdf>

⁵⁰ Australian Prudential Regulation Authority, Capital buffers. <https://www.apra.gov.au/capital-buffers>


⁵¹ Office of the Superintendent of Financial Institutions, OSFI keeps Domestic Stability Buffer at 2.50%, provides update on review, 2022. <https://www.osfi-bsif.gc.ca/Eng/osfi-bsif/med/Pages/dsb20220622-nr.aspx>

⁵² Reserve Bank of New Zealand, Requirements for domestic systemically important banks, 2022. <https://www.rbnz.govt.nz/regulation-and-supervision/oversight-of-banks/standards-and-requirements-for-banks/requirements-for-domestic-systemically-important-banks>

mamlakatlari, Hindiston va Yangi Zelandiya aynan ushbu tajribadan foydalangan.

2021-yilda Yevropa Ittifoqida tizimli ahamiyatga molik banklar soni 175 tani tashkil etib, ushbu banklar uchun oʻrnatilgan buferlarning aksariyat qismi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 1 foizni tashkil etmoqda⁵³.

43-chizma. Tanlangan mamlakatlarda tizimli ahamiyatga molik banklarning soni va bufer guruhlar soni



Manba: Vakolatli davlat organlari.

Har bir davlat boʻyicha bufer guruhlar soni hamda tizimli ahamiyatga molik banklar soni orasidagi mutanosiblik pufakchalarning oʻlchamida oʻz aksini topgan.

Banklarning tizimli ahamiyatlilik darajasiga mos ravishda buferlar shakllantirish uchun tizimli ahamiyatga molik banklarga oʻrnatiladigan buferlar guruhlariga ajratiladi. Oʻrganilgan 22 ta mamlakatda buferlar boʻyicha guruhlar soni 3–12 oraliqʻida ekanligi va eng koʻp tarqalgan guruhlar soni 4–6 tani tashkil etganligini koʻrish mumkin. Guruhlar sonini aniqlashda banklarning tizimli ahamiyatga egalik boʻyicha ballari ham muhim oʻrin tutadi. Bunda banklarning soni koʻp boʻlishidan qatʻi nazar banklarning tizimli ahamiyatlilik boʻyicha ballari bir-biriga yaqin boʻlsa,

⁵³ European Banking Authority, List of O-SIIs notified to the EBA by year, 2021.

https://www.eba.europa.eu/sites/default/documents/files/document_library/1036637/2021%20OSII%20List.xlsx

guruhlar soni shuncha kam bo'лади va aksincha. Skoring tizimiga ko'ra, tizimli ahamiyatga molik bank qanchalik yirik bo'lsa, mos ravishda yuqori guruhga kiritiladi va riskka tortilgan aktivlariga nisbatan foiz hisobida ko'proq kapital saqlash talab etiladi⁵⁴.

Kuzatilgan deyarli barcha mamlakatlar kapital monandligi uchun o'rnatiladigan minimal talablarni Bazel III standartlariga muvofiq joriy qilgan (2-ilova). Ayni paytda mazkur mamlakatlarda banklar uchun joriy qilingan kapital buferlar darajalari sezilarli farq qiladi. Kapital bufer darajalarining turli xil bo'lishini banklarni nazorat qiluvchi organlar tomonidan risklarning turlicha baholanishi va bank tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Ta'kidlash joizki, kapital monandligiga qo'yilgan minimal talablar bank tizimining barqarorligini ta'minlashning asosi sanaladi.

O'zbekistonda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun bufer qo'llash zarurati

2022-yil 1-avgust holatiga O'zbekistonda tizimli ahamiyatga ega banklarning o'rtacha kapital monandlilik koeffitsiyenti 16,8 foizni, boshqa banklarda 16,4 foizni tashkil etib, minimal kapitalga qo'yilgan talabidan (13 foiz) yuqori shakllangan.

Bazel qo'mitasi tizimli ahamiyatga molik banklar uchun bufer joriy qilishda bank tizimi hajmining YaIMga nisbati ko'rsatkichi hamda bank sektorining konsentratsiyalashgan darajasini inobatga olishni tavsiya etadi. Bank tizimi hajmining YaIMga nisbatan yuqoriligi tizimli ahamiyatga molik bankning nobarqarorlashuvi real iqtisodiyotga salbiy ta'siri seziluvchanligini anglatadi⁵⁵.

2022-yil 1-iyul holatiga O'zbekistonda bank aktivlarining YaIMga nisbati 62 foizni tashkil etdi hamda bank tizimining iqtisodiyot uchun muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Bank tizimi yuqori darajada konsentratsiyalashgan davlatlarda tizimli ahamiyatga molik banklar inqirozining milliy iqtisodiyotga salbiy ta'siri past darajada konsentratsiyalashgan davlatlarga nisbatan kuchliroq hisoblanadi. O'z navbatida, bank sektoridagi konsentratsiya va raqobat

⁵⁴ Juan Ramirez, Handbook of Basel III Capital: Enhancing Bank Capital in Practice, 2016.

⁵⁵ Basel Committee on Banking Supervision, A framework for dealing with domestic systemically important banks, 2012. <https://www.bis.org/publ/bcbs233.pdf>


darajasini baholash uchun Xerfindal-Xirshman indeksidan (Herfindahl-Hirschman Index, HHI) foydalaniladi⁵⁶:

$$HHI = s_1^2 + s_2^2 + s_3^2 + \dots + s_n^2$$

Bu yerda,

s_n – biror bir bank aktivlarining jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi.

44-chizma. 2020-yilda Yevropa davlatlarida HH indeksi va tizimli ahamiyatga molik banklar uchun o'rnatilgan buferning banklar aktivlaridan kelib chiqib hisoblangan o'rtacha tortilgan darajalari⁵⁷



Manba: Yevropa bank nazorati organi.

HH indeksi bank xizmatlari bozorida raqobat darajasiga ko'ra 3 ta guruhga bo'linadi:

- a) past darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan past);
- b) o'rta darajada konsentratsiyalashgan (1000 dan 1800 gacha);

⁵⁶ Federal Reserve Bank of St. Louis, The ABCs of HHI: Competition and Community Banks, 2018. <https://www.stlouisfed.org/on-the-economy/2018/june/hhi-competition-community-banks>

⁵⁷ European Banking Authority, Report on the appropriate methodology to calibrate O-SII buffer rates, 2020. https://www.eba.europa.eu/sites/default/documents/files/document_library/Publications/Reports/2020/961796/EA%20report%20on%20calibration%20of%20O-SII%20buffer%20rates.pdf

v) yuqori darajada konsentratsiyalashgan (1800 dan yuqori).

2022-yil 1-avgust holatiga O'zbekistonda bank tizimining HH indeksi 1096 ni tashkil etdi. Bu esa, O'zbekiston bank tizimida o'rta darajada konsentratsiyalashgan bank xizmatlari bozori mavjudligini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, HH indeksi O'zbekistonning HH indeksidan past bo'lgan mamlakatlarda ham tizimli ahamiyatga molik banklar uchun bufer joriy qilingan.

Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun o'rnatiladigan buferning eng yuqori darajasini aniqlash bo'yicha yondashuvlar

Bazel qo'mitasi mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar (D-SIBs) uchun bufer darajasi bo'yicha siyosiy qarashda (policy judgement) tahliliy asoslardan foydalanishni tavsiya etadi⁵⁸. Masalan, jahon miqyosida tizimli ahamiyatga molik banklar (G-SIBs) uchun yuqori yo'qotishlarni qoplash talabining maksimal darajasini baholash uchun kutilayotgan ta'sir yondashuvi (expected impact approach) va uzoq muddatli iqtisodiy ta'sir yondashuvi (long-term economic impact, LEI) asosida empirik tahlillardan foydalangan⁵⁹. Shuningdek, bank sektorining konsentratsiya darajasi tizimli ahamiyatga molik banklar uchun bufer darajasi bo'yicha siyosiy qarashda (policy judgement) xizmat qilishi mumkin.

Kutilayotgan ta'sir yondashuvida kapital bufer darajasini o'rnatish uchun riskka tortilgan aktivlar hamda banklar aksiyalarining narxlari kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu yondashuvda kapitalga nisbatan qo'yilgan talab va banklarning defolt bo'lish ehtimoli o'rtasidagi bog'liqlik Merton modeli⁶⁰ yordamida aniqlanadi. Merton modelining mohiyatiga ko'ra banklarning defolt bo'lish ehtimoli banklar aksiyalari daromadliligining standart chetlashishi va kapitalning bozor qiymati, banklarning jami aktivlari, majburiyatlari kabi ko'rsatkichlardan foydalangan holda hisoblanadi.

O'zbekistonda moliya bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi bugungi kunda banklar aksiyalari daromadliligi hamda banklarning bozor qiymati bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Bu

⁵⁸ Basel Committee on Banking Supervision, A framework for dealing with domestic systemically important banks, 2012. <https://www.bis.org/publ/bcbs233.pdf>

⁵⁹ Basel Committee on Banking Supervision, Global systemically important banks: revised assessment methodology and the higher loss absorbency requirement, 2018. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d445.pdf>

⁶⁰ Robert C. Merton, On the pricing of corporate debt: The risk structure of interest rates, 1974. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1974.tb03058.x>

esa, O'zbekiston sharoitida banklarga qo'shimcha kapital buferini aniqlash uchun Merton modelini qo'llash kutilgan natija bermasligini anglatadi.

O'zbekistonning HH indeksiga yaqin bo'lgan mamlakatlarning maksimal buferlari tizimli ahamiyatga molik banklar uchun buferning taxminiy eng yuqori darajasini ko'rsatishga xizmat qiladi. 2020-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonning HH indeksiga yaqin bo'lgan mamlakatlar Sloveniya, Rumuniya hamda Avstriyaning maksimal bufer darajasi 2 foizni tashkil etmoqda⁶¹.

Uzoq muddatli iqtisodiy ta'sir yondashuvi Bazel qo'mitasining "Kapital va likvidlikka qo'yilgan talablarni qat'iylashtirishning uzoq muddatli iqtisodiy ta'sirini baholash to'g'risida"gi hisobotiga⁶² asoslangan. Ushbu yondashuvda banklar uchun o'rnatilgan kapital talablarini qat'iylashtirishning uzoq muddatli iqtisodiy foydalari va yo'qotishlari baholanadi. Bunda kutilayotgan sof foydaning, ya'ni kutilayotgan iqtisodiy foyda va yo'qotish o'rtasidagi farqning eng yuqori qiymatiga mos keluvchi moddiy asosiy kapitalga nisbatan qo'yilgan talab eng maqbul darajasi sifatida qaraladi.

Yuqori kapitalizatsiyaga ega bo'lgan va qat'iy likvidlilik talablari mavjud bo'lgan bank tizimining inqiroz bo'lish ehtimolini kamaytirishi iqtisodiy foyda sifatida qarash mumkin. Kapital va likvidlikka nisbatan talablarning qat'iylashtirilishi bank kreditlarining qimmatlashishiga, natijada iste'mol va investitsiyalar hajmini pasaytirgan holda real ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib kelishi iqtisodiy yo'qotish hisoblanadi.


Inqirozlar natijasidagi iqtisodiy yo'qotishlarni aniqlashda YaIM va uning trendi o'rtasidagi tafovut inobatga olinadi. Inqiroz natijasidagi iqtisodiy yo'qotishlar aniqlangandan so'ng, kapitalga nisbatan qo'yilgan talabni oshirish natijasida inqiroz yuzaga kelish ehtimolining pasayishi kutilayotgan foyda sifatida qaraladi.

⁶¹ European Banking Authority, EBA report on the appropriate methodology to calibrate O-SII buffer rates, 2020, p.15.

https://www.eba.europa.eu/sites/default/documents/files/document_library/Publications/Reports/2020/961796/EA%20report%20on%20calibration%20of%20OSII%20buffer%20rates.pdf

⁶² Basel Committee on Banking Supervision, An assessment of the long-term economic impact of stronger capital and liquidity requirements, 2010. <https://www.bis.org/publ/bcbs173.pdf>

45-chizma. O'zbekistonda nominal YalMning amaldagi va potensial qiymatlari orasidagi tafovut, trln so'm



Manba: Statistika qo'mitasi va Markaziy bank.

Izoh: YalM trendi HP (Hodrick-Prescott) filtri orqali hisoblangan.

Bu yerda, A va A' nuqtalar salbiy tafovutga o'tishdagi boshlang'ich YalMning amaldagi qiymatlari, B va B' nuqtalar o'suvchi salbiy tafovutning eng yuqori darajasidagi YalMning amaldagi qiymatlari, C va C' nuqtalar pasayuvchi salbiy tafovutning eng yuqori darajasidagi YalMning amaldagi qiymatlari, D va D' nuqtalar esa YalMning amaldagi qiymatining uning potensialiga erishgan qiymatlarini ifodalaydi.

Dastlab, YalMning salbiy tafovuti natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotish aniqlab olinadi. Bunda A va B nuqtalar orasidagi hamda A va C nuqtalar orasidagi farqlarning yig'indisini A nuqtadagi qiymatiga nisbati doimiy bo'lmagan ta'sir (no permanent effect)⁶³ ko'rsatadi. Shuningdek, jami kuzatishlar davomidagi YalMning salbiy tafovuti natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotish qiymatlarining yig'indisi o'rtacha doimiy ta'sirini (moderate permanent effect)⁶⁴ ifodalaydi.

⁶³ Doimiy bo'lmagan ta'sir (no permanent effect) = $\frac{(B-A)+(C-A)}{A}$

⁶⁴ O'rtacha doimiy ta'sir (moderate permanent effect) = $\frac{(B-A)+(C-A)}{A} + \frac{(B'-A')+(C'-A')}{A'}$

Hisob-kitoblarga ko'ra doimiy bo'lmagan va o'rtacha doimiy ta'sirlarining qiymatlari mos ravishda 0,42 va 0,67 ni tashkil etdi. Uzoq muddatli iqtisodiy ta'sir yondashuviga ko'ra bank tizimi inqiroz bo'lish ehtimolining 1 foiz bandga kamayishi kutilayotgan iqtisodiy foydaning YaIMga nisbatan doimiy bo'lmagan ta'siri orqali 0,42 foizga va o'rtacha doimiy ta'siri orqali 0,67 foizga oshishini ko'rsatmoqda. Kapitalga nisbatan qo'yilgan talab va inqiroz bo'lish ehtimoli o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatkichlari Bazal qo'mitasining tadqiqot natijalaridan foydalanildi⁶⁵.

2-jadval. Kapitalga nisbatan qo'yilgan talab hamda kutilayotgan foyda o'rtasidagi bog'liqlik

Birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan qo'yilgan talab, %	Inqiroz bo'lish ehtimolining kamayishi, foizli band*§	Kutilayotgan foydaning yillik YaIMga nisbati (doimiy bo'lmagan ta'sir), %†	Kutilayotgan foydaning yillik YaIMga nisbati (o'rtacha doimiy ta'sir), %†
A	B	$C = B \times 0.42$	$D = B \times 0.67$
7	1.2	0.50	0.81
8	2.2	0.93	1.49
9	2.9	1.21	1.94
10	3.3	1.39	2.24
11	3.6	1.52	2.44
12	3.8	1.61	2.58
13	4.0	1.67	2.68
14	4.1	1.73	2.77
15	4.2	1.76	2.82

Manba: *Bazal qo'mitasi va †Markaziy bank hisob-kitobi.

§ Bazal qo'mitasining hisob-kitoblariga ko'ra, kutilayotgan foydaning yillik YaIMga nisbatini (o'rtacha doimiy ta'sir) YaIMning salbiy tafovuti natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotish (o'rtacha doimiy ta'sir) qiymatlarining yig'indisiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Kapitalga nisbatan qo'yilgan talab darajasining ortishi inqiroz bo'lish ehtimolini kamaytiradi va inqiroz natijasidagi yo'qotishlarning oldini olish hisobiga kutilayotgan foyda ham oshib boradi. Biroq, kapitalga nisbatan qo'yilgan talabning qat'iylashtirilishi iqtisodiy xarajatlarni ham yuzaga keltiradi. O'z navbatida, kapitalga nisbatan qo'yilgan talabning eng maqbul darajasiga sof foydaning eng yuqori qiymatida erishiladi.

Kapital uchun talabni oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzoq muddatli xarajatlar Bazal qo'mitasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida kapitalga qo'yilgan talabning 7 foizdan

⁶⁵ Basel Committee on Banking Supervision, An assessment of the long-term economic impact of stronger capital and liquidity requirements, 2010. <https://www.bis.org/publ/bcbs173.pdf>

boshlanadigan har bir 1 foiz bandga oshirilishi ishlab chiqarish darajasining asosiy ko'rsatkichdan 0,09 foizga pasayishiga olib keladi⁶⁶.

3-jadval. Kapitalga nisbatan qo'yilgan talab hamda kutilayotgan uzoq muddatli sof foyda o'rtasidagi bog'liqlik

Birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan qo'yilgan talab, %	Inqiroz bo'lish ehtimolining kamayishi, foizli band*	Kutilayotgan foydani yillik YalMga nisbati (doimiy bo'lmagan ta'sir), % [†]	Kutilayotgan foydani yillik YalMga nisbati (o'rtacha doimiy ta'sir), % [†]	Kutilayotgan xarajatni yillik YalMga nisbati, %*	Kutilayotgan sof foydani yillik YalMga nisbati (doimiy bo'lmagan ta'sir), % [†]	Kutilayotgan sof foydani yillik YalMga nisbati (o'rtacha doimiy ta'sir), % [†]
A	B	$C = B \times 0.42$	$D = B \times 0.67$	E	$F = C - E$	$G = D - E$
7	1.2	0.50	0.81	0.08	0.424	0.730
8	2.2	0.93	1.49	0.17	0.759	1.322
9	2.9	1.21	1.94	0.26	0.948	1.679
10	3.3	1.39	2.24	0.35	1.044	1.887
11	3.6	1.52	2.44	0.44	1.080	2.000
12	3.8	1.61	2.58	0.53	1.076	2.048
13	4.0	1.67	2.68	0.62	1.052	2.065
14	4.1	1.73	2.77	0.71	1.015	2.060
15	4.2	1.76	2.82	0.80	0.959	2.023


Manba: *Bazel qo'mitasi va [†]Markaziy bank hisob-kitobi.

Birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan qo'yilgan talabning eng maqbul darajasi doimiy bo'lmagan hamda o'rtacha doimiy ta'sirlarda mos ravishda 11 va 13 foizlarni ko'rsatmoqda.

Birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan o'rnatilgan me'yor o'rtacha doimiy ta'siri bo'yicha 13 foiz bo'lganda kutilayotgan sof foyda eng yuqori qiymatga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, tizimli ahamiyatga molik banklarga o'rnatiladigan qo'shimcha bufer faqatgina birinchi darajali asosiy kapital (CET1) bilan shakllantirilishi lozim. Uzoq muddatli iqtisodiy ta'sir yondashuvi (LEI) natijasiga ko'ra, O'zbekistonda birinchi darajali asosiy kapital uchun o'rnatilgan me'yor (8 foiz) aniqlangan birinchi darajali asosiy kapitalning eng maqbul darajasidan (13 foiz) past ekanligini ko'rsatmoqda.

⁶⁶ Basel Committee on Banking Supervision, An assessment of the long-term economic impact of stronger capital and liquidity requirements, 2010, p.29. <https://www.bis.org/publ/bcbs173.pdf>

46-chizma. Birinchi darajali kapitalga nisbatan qo'yilgan talabning eng maqbul darajasi



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Buferning eng yuqori darajasini aniqlashda, odatda bank tizimi bo'yicha riskka tortilgan aktivlarning o'zgarishi inobatga olinadi. Jumladan, 2021-yilda bank tizimi bo'yicha riskka tortilgan aktivlarning qiymati 27 foizga⁶⁷ oshgan.

Buferning eng yuqori darajasi birinchi darajali asosiy kapitalga qo'yilgan talabning eng maqbul darajasini (13 foiz) riskka tortilgan aktivlarning yillik o'sish sur'atiga (1,27 koeffitsiyent) nisbatidan birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan amalda o'rnatilgan me'yorini (8 foiz) chegirish orqali aniqlanadi⁶⁸.

$$\frac{13}{1,27} - 8 \approx 2$$

Tahlil natijalari tizimli ahamiyatga molik banklar uchun maksimal bufer darajasi 2 foizni ko'rsatmoqda.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, 2022. <https://cbu.uz/en/statistics/e-gdds/data/111572/>

⁶⁸ Basel Committee on Banking Supervision, Global systemically important banks: updated assessment methodology and the higher loss absorbency requirement, 2013. <https://www.bis.org/publ/bcbs255.pdf>

O'zbekistonda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun qo'shimcha bufer o'rnatish kapital monandligiga bo'lgan talabni ortiqcha qat'iylashtirib yuborishi mumkin. Shu sababli, qo'shimcha bufer joriy qilishda kapitalga qo'yilgan minimal talablar bilan bufer talablarini muvofiqlashtirish zarur bo'ladi.

IV. Makro stress-test

4.1. Makroiqtisodiy ssenariylar


XVJning tavsiyalari asosida makromoliyaviy risklarni aniqlash va bank tizimining ularga nisbatan bardoshligini baholash uchun makro stress-test vositasi ishlab chiqildi. U kredit riski, qimmatli qog'ozlar, valyuta almashuvi hamda foyda va zarar hisobi modullaridan bank sektorining turli makroiqtisodiy va moliyaviy ssenariylarga bardoshlilikini istiqbolli tarzda baholash uchun foydalanadi. Real YaIM o'sishi, inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta kursi kabi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda uchta makroiqtisodiy ssenariylar (asosiy, mo'tadil va xatarli) tayyorlandi⁶⁹.

Asosiy ssenariy iqtisodiy o'zgarishlar joriy ko'rsatkichlarda davom etishi natijasida kelajakdagi iqtisodiyotning ehtimoliy holatini ifodalaydi. Mo'tadil ssenariy kichik shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiyotning istiqboldagi holatini ko'rsatadi. Xatarli ssenariy esa yuz berishi mumkin bo'lgan keskin shoklarni inobatga olgan holda kelajakdagi iqtisodiyotning yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarini o'z ichiga olgan.

Qisqa muddatda inflyatsiya barcha ssenariylarda jahon tovar bozorlaridagi narxlarning oshishi va yetkazib berish zanjirlarining uzilishi tufayli oshadi. Kredit foiz stavkalari ma'lum bir vaqt oralig'ida yuqori bo'lib qoladi. Inflyatsiya bosimi jilovlanishi natijasida kredit foiz stavkalari pasayadi. Xatarli ssenariyda so'mning qadrsizlanishi YaIM qisqarishi va inflyatsiyaning o'sishi fonida tezlashadi.

⁶⁹ Adam Gersl, Macro Stress Testing (ST) Tool for Central Bank of Uzbekistan. User Manual, 2022.


47-chizma. Makroiqtisodiy ssenariylar



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Makro stress-test muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi ssenariylarini ishlab chiqish uchun yordamchi modelni o'z ichiga oladi. Model muammoli kreditlar ulushi erksiz o'zgaruvchi sifatida va ssenariylarda ko'rsatilgan asosiy makromoliyaviy omillar (YalM o'sishi, kredit foiz stavkasi va bitta oldingi davrdagi muammoli kreditlar) erkli o'zgaruvchilar sifatida baholandi.

48-chizma. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi bo'yicha ssenariylar




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Pandemiya davridan oldin muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 3 foizdan past bo'lib, barqaror shakllangan. Biroq, karantin cheklovlari sababli ko'plab qarz oluvchilar o'z kreditlarini to'lash uchun qiyinchiliklarga duch keldi va muammoli kreditlar ulushi ko'tarildi. Markaziy bank pandemiyaning salbiy ta'sirini yumshatish uchun qo'llab-quvvatlovchi choralarni ko'rdi. Ushbu chora-tadbirlardan biri pandemiya tufayli faoliyatida salbiy holatlar kuzatilgan jismoniy va tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli davr bilan kreditlarni kechiktirish va to'lash muddatini 2020-yil 1-oktabrgacha uzaytirish bo'ldi. Ushbu chora 2020-yilda muammoli kreditlarning tez o'sishiga va likvidlik bosimining yumshatilishiga yordam berdi. 2021-yilda pandemiya sabab bo'lgan iqtisodiy faollikning sekinlashuvi va banklar tomonidan muammoli kreditlar hisobotini yuritish tizimining takomillashuvi oqibatida muammoli kreditlar o'sishda davom etdi.

4.2. Makro stress-test natijalari

Ko'zda tutilgan kapital monandlilik koeffitsiyenti kredit, bozor va daromad risklarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi to'lov qobiliyati stress-testining yakuniy natijasidir. Bank tizimi hatto kuchli shok holatida ham bardoshli ekanligini ko'rsatmoqda. Garchi banklar kreditlar bo'yicha katta yo'qotishlarga duchor bo'lishsa-da, ularning kapital darajalari jiddiy shoklarga moslashishi va umumiy kapital koeffitsiyentini me'yoriy minimumga yaqin darajada ushlab tura olishlari mumkin.


49-chizma. Asosiy ssenariy



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Asosiy ssenariyga asosan 2024-yil oxiriga kelib kapital monandlilik koeffitsiyenti 18 foizga yetishi mumkin. Kapital monandlilik koeffitsiyentini pasaytiradigan omillar, ya'ni riskka tortilgan aktivlar, kredit yo'qotishlari, soliqlar va dividendlarning ko'payishi sof foiz daromadlari va sof operatsion daromadlarning o'sishi bilan qoplanadi. Stress-test obligatsiyalar va ko'chmas mulk bozorlarida yo'qotish bo'lmasligini va konsentratsiya xavfi pastligini ko'rsatdi.


50-chizma. Mo'tadil ssenariy



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Mo'tadil ssenariyga ko'ra, kredit yo'qotishlari bazaviy ko'rsatkichga nisbatan deyarli ikki martaga ko'payganligi banklarning sof foydasi kamayishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy o'sish banklarning rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mo'tadil ssenariyda zaif o'sish qarz oluvchilarning kreditlarni to'lash qobiliyatini pasaytiradi va banklar aktivlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, banklarning sof foiz daromadlari va boshqa operatsion daromadlari kamayadi, kreditlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha zararlar esa oshadi. Banklarning kamroq foyda ko'rishi ular kamroq soliq va dividendlar to'lashini anglatadi.


51-chizma. Xatarli ssenariy



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Xatarli ssenariyda bank tizimi katta yo'qotishlarga duchor bo'ladi va kapital monandlilik koeffitsiyenti me'yoriy minimum darajasini buzadi. Garchi iqtisodiy qisqarish bo'lsa ham, sof foiz va boshqa operatsion daromad kreditlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli bo'ladi. Shunga qaramay, riskka tortilgan aktivlarning o'sishi kapital monandlilik koeffitsiyentini 13 foizdan pastga tushishiga turtki bo'lishi mumkin.

52-chizma. Asosiy, mo'tadil va xatarli ssenariylarning stress sharoitlarida bank sektori kapitalining bardoshlilik holati



Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

Umumiy olganda, makro stress-test natijalari asosiy va mo'tadil ssenariylarda banklarning kapital yetarlilik darajasi minimal regulyativ kapital me'yorida yuqori bo'lishini hamda turli xil shoklarga yaxshi bardosh bera olishini ko'rsatdi. Biroq, xatarli ssenariyda, ya'ni iqtisodiyotning keskin yomonlashuvi va valyuta kursining sezilarli darajada qadsizlanishi holatida bank tizimining regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti 13 foizlik me'yoriy chegaraga yeta olmasligi mumkin. Bunda sezilarli kredit yo'qotishlar va riskka tortilgan aktivlarning o'sishi banklarni regulyativ kapitalga nisbatan qo'yilgan minimal talabni bajara olmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, bank kapitali yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar jiddiy xavf tug'dirmaydi va bank tizimi ushbu yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun yetarli himoyaga ega bo'ladi.

Moliyaviy sharoitlar indeksining mohiyati

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ning moliyaviy sharoitlar indeksi keng qamrovli indeks bo'lib, u qisqa muddatli real foiz stavkasi, banklararo foiz spreadi, davlat obligatsiyalarining foiz stavkalari spreadi, suveren va korporativ qarz spreadlari, milliy valyutadagi va xalqaro korporativ qarz spreadlari, aksiyalar narxlari va tebranuvchanligi, valyuta almashinuv kursi va uy-joylar real narxlari ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi⁷⁰.

XVJ moliyaviy sharoitlar indeksini hisoblashda 22 ta rivojlangan⁷¹ va 21 ta bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarning⁷² ma'lumotlaridan foydalanilgan. Mintaqalar bo'yicha umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar xarid qobiliyati paritetiga asoslangan YalM ulushlaridan kelib chiqqan holda hisoblanadi⁷³.

Moliyaviy sharoitlar indeksi ko'rsatkichining musbat tomonga o'zgarishi moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi, manfiy tomonga o'zgarishi esa moliyaviy sharoitlarning yumshashini anglatadi.

⁷⁰ International Monetary Fund, Global Financial Stability Report, Online Annex 1.1 Technical Note, October 2018. <https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/GFSR/2018/Oct/CH1/doc/Annex1-1.ashx>

⁷¹ Avstraliya, Avstriya, AQSh, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gongkong, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Koreya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Singapur, Finlyandiya, Fransiya, Shveysariya, Shvetsiya, Yaponiya.

⁷² Argentina, Braziliya, Vengriya, Janubiy Afrika, Indoneziya, Kolumbiya, Livan, Malayziya, Meksika, Misr, Nigeriya, Peru, Polsha, Rossiya, Turkiya, Ukraina, Filippin, Xitoy, Chili, Qozog'iston, Hindiston.

⁷³ International Monetary Fund, Global Financial Stability Report, October 2018, p. 2. <https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/GFSR/2018/Oct/CH1/doc/text.ashx>

Turli xil davlatlarda kapital monandligiga qo'yilgan minimal talablar hamda kapital buferlar (2022-yil 1-sentabr holatiga)

Davlatlar	Kapitalga qo'yilgan minimal talablar			Bufer talablari			
	Birinchi darajali asosiy kapitalning monandlilik koef. (CET1), % ⁷⁴	Birinchi darajali kapitalning monandlilik koef. (Tier 1), % ⁷⁵	Regulyativ kapitalning monandlilik koef., %	Kapitalning konser-vatsiya buferi (CCoB), %	Kontr-siklik kapital buferi (CCyB), %	Tizimli risk buferi (SyRB), %	Tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer (SIB bufer), %
Belgiya	4,5	6	8	2,5	0	9	0,75–1,5
Vengriya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,125–0,5
Germaniya	4,5	6	8	2,5	0	2	0,25–2
Gongkong	4,5	6	8	2,5	1	0	1–3,5
Gretsiya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,75
Gruziya	4,5	6	8	2,5	0	0	1,5–2,5
Janubiy Afrika	4,5	6	8	2,5	2,5	0	0,5–2,5
Irlandiya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–1,5
Italiya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,25–1
Kanada	4,5	6	8	2,5	0	0	2,5
Kipr	4,5	6	8	2,5	0	0	0,25–1,25
Latviya	4,5	6	8	2,5	0	0	1,25–2
Lixtenshteyn	4,5	6	8	2,5	0	1	1–2
Malayziya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–2
Malta	4,5	6	8	2,5	0	0	0,25–2
Norvegiya	4,5	6	8	2,5	1,5	4,5	1–2
Polsha	4,5	6	8	2,5	0	0	0,1–1
Rossiya	4,5	6	8	2,5	0	0	1
Ruminiya	4,5	6	8	2,5	0	0–2	1–2
Saudiya Arabistoni	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–2,5
Serbiya	4,5	6	8	2,5	0	3	0–2
Sloveniya	4,5	6	8	2,5	0	0,5–1	0,25–1
Finlyandiya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–2
Fransiya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,25–1,5
Xorvatiya	4,5	6	8	2,5	0	1,5	0,5–2
Hindiston	5,5	7	9	2,5	0	0	0,2–1
Chexiya	4,5	6	8	2,5	1	0	0,5–2,5
Shimoliy Makedoniya	4,5	6	8	2,5	0,5	0	1–3,5
Estoniya	4,5	6	8	2,5	0	0	0,5–2
Yangi Zelandiya	4,5	6	8	2,5	0	0	2

Manba: Yevropa tizimli xatarlar kengashi va vakolatli davlat organlari.

⁷⁴ Birinchi darajali kapital uchun qo'yilgan minimal talab (6 foiz) birinchi darajali asosiy kapital uchun qo'yilgan minimal talabni (4,5 foiz) o'z ichiga oladi.

⁷⁵ Regulyativ kapital uchun qo'yilgan minimal talab (8 foiz) birinchi darajali kapital uchun qo'yilgan minimal talabni (6 foiz) o'z ichiga oladi.